

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM USLUBIYOTI
KAFEDRASI**

Qo'lyozma huquqida
UDK

RAJABOVA NODIRABEGIM

**BOSHLANG`ICH SINF O`QISH DARSLIKLARIDA
ISTIQLOL DAVRI BOLALAR SHE'RIYATI IFODASI**

5A111701 - Boshlang'ich ta'lismi ixtisosligi bo'yicha
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

(2016 - 2017 - o`quv yili)

Ilmiy rahbar: **B.S.Jamilova,**
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Sh.S.Sulaymonov,**
O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi
Buxoro viloyati bo`limi raisi, f.f.n., dotsent.

D.H.Quvvatova, f.f.d., dotsent

BUXORO - 2017

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM USLUBIYOTI
KAFEDRASI**

Qo'lyozma huquqida
UDK

RAJABOVA NODIRABEGIM

**BOSHLANG`ICH SINF O`QISH DARSLIKLARIDA
ISTIQLOL DAVRI BOLALAR SHE'RIYATI IFODASI**

5A111701 - Boshlang'ich ta'lismi ixtisosligi bo'yicha
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

(2016 - 2017 - o`quv yili)

Ilmiy rahbar: **B.S.Jamilova,**
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Sh.S.Sulaymonov,**
O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi
Buxoro viloyati bo`limi raisi, f.f.n., dotsent.

D.H.Quvvatova, f.f.d., dotsent

BUXORO - 2017

MUNDARIJA:

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....

I BOB. ISTIQLOL DAVRI BOLALAR SHE'RIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....

- I.1. Istiqlol davri bolalar she'riyatining janriy va shakily tamoyillari
- I.2. Istiqlol davri bolalar she'riyatida an'ana va novatorlik
1-bob bo`yicha xulosalar.....

II BOB. O`QISH DARSLIKLARINING YANGI AVLODIDA ISTIQLOL DAVRI BOLALAR SHE'RIYATI IFODASI

- II.1. Darsliklardagi istiqlol davri bolalar she'riyatining mavzuviy
mundarijasi
- II.2. O`qish kitoblaridagi mustaqillik davri she'riyatining g`oyaviy-badiiy
xususiyatlari.....
2-bob bo`yicha xulosalar.....

III BOB. O`QISH DARSLARIDA ISTIQLOL DAVRI SHE'RLARINI O`RGANISH USULLARI VA AHAMIYATI

- III.1. O`qish darslarida istiqlol davri bolalar she'rlarini o`rganishda interaktiv
metodlardan foydalanish
- III.2. Davr bolalar she'riyatini o`rganishning ta'llim-tarbiyaviy, ma'naviy-
ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy dolzarbligi.....
3-bob bo`yicha xulosalar.....

UMUMIY XULOSA VA TAKLIFLAR.....

ILOVALAR.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

KIRISH

Ishning umumiyl tavsifi. Istiqlol katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Mamlakatimizda ta’lim tizimi tubdan yangilandi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yaratildi hamda ta’lim borasida qator qonun va qarorlar chiqarildi. Umumta’lim maktablari uchun yangi avlod darsliklarini yaratish boshlandi. Bu ibratli qadamlar O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so`zlaridan boshlandi, desak mubolag`a bo`lmas: “Hammamizga ayonki, ta’lim darslikdan boshlanadi. Achchiq bo`lsa ham tan olishga majburmiz: deyarli barcha sohada darsliklarimiz ahvoli bugungi va ertangi kun talablari darajasida emas. ...Eski qolipda, mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xolos bo`lmasdan bolalarimizni yangicha fikrlashga o`rgatolmaymiz, axir.”¹

Mustaqillik davrida boshlang`ich ta’limning hamma sinflari uchun dastur va darsliklar yaratilib, har yili to`ldirilib, qayta nashr etib borilmoqda. Darsliklar yaratish borasida e’lon qilingan tanlovlardan ham uning sifatini jahon andazalari darajasiga ko`tarishda asosiy omillardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Ta’lim-tarbiya o`ziga xos murakkab va mas’uliyatli san’at bo`lib, qadim-qadimdan unga alohida hurmat bilan yondashiladi. Chunki Vatanimiz kelajagi ta’lim-tarbiyaning nechog`li hayotbaxsh va samarali bo`lishiga bog`liq. Milliy istiqlol qo`lga kiritilgan hozirgi paytda o`quv darsliklarining mazmuni va sifatiga qo`yiladigan talablar yanada ortdi. Chunki darsliklar ta’lim-tarbiya jarayonining eng muhim vositasidir.

Hozirgi darsliklar tuzilish va mazmuniga ko`ra mavjud ijtimoiy hayotdagisi o`zgarishlarni o`ziga singdirib olgan bo`lishi kerak. Xususan, boshlang`ich sinflarda o`qitiladigan “O`qish kitobi” darsliklari oldiga bu talab

¹ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishslash – davr talabi. Asarlar, 5-jild. –T.: O’zbekiston, 1997. -360 b.

aniq qilib qo`yilgan. Chunki boshlang`ich ta`lim – umumiy o`rta ta`limning asosiy poydevoridir. Bolalarning kelgusidagi ta`lim muvaffaqiyati, ularning har tomonlama kamol topishi ko`p jihatdan boshlang`ich mакtab ishining natijalariga bog`liqdir. Barcha ma`rifatli mamlakatlarda bo`lgani kabi bizning mustaqil diyormizda ham boshlang`ich ta`lim haqida jamiyatimiz alohida g`amxo`rlik ko`satsatmoqda. Yurtimizda kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirish, yosh avlodni mutolaaga undash kabi vazifalar olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylandi. Binobarin, davlatimiz rahbarining 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`g`risida”gi farmoyishida ham bu vazifalar keng qamrovda o`zining aniq ifodasini topgan.

Ta`lim jarayonidagi barcha fanlarning asosiy maqsadi va mohiyati o`quvchilarda – o`sib kelayotgan yosh avlodda muayyan sohalarga oid bilimlarning asoslarini shakllantirish, shularning negizida ularning boy ma`naviy olamini yaratishdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirishda badiiy adabiyot, boshlang`ich sinflarda esa o`qish kitoblariga teng keladigan soha yo`q, deb ayta olamiz. Jumladan, boshlang`ich sinf o`qish kitoblari o`quvchilarning dunyoqarashi shakllanishida, ulug` insoniy qadriyatlarni bolalik xotiralaridayoq muhrlanishiga beqiyos xizmat qiladi. Chunki “Boshlang`ich ta`lim konsepsiysi” da (2015 y.) har bir o`quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTSda belgilangan bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`lishlarini ta`minlash, iqtidorli o`quvchilarning intellektual potensiallarini muntazam oshirib borishlariga sharoit yaratish, ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o`z-o`zini anglash salohiyatini shakllantirish, jismonan sog`lom bo`lishga, moddiy borliq go`zalliklarini his eta olishga, go`zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarni o`zida singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o`rgatishdan iboratligi kabi vazifalar belgilab qo`yilgan. Bundan tashqari

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to`g`risidagi Qarorida (2017 y. 6 aprel) ham 1-4 sinflarda haftasiga 8-10 soatdan adabiyot darslarini o`tish rejalashtirilgan. Mazkur DTSning Malaka talablarida adabiyot fanini o`itishning Standart darajasida boshlang`ich sinflarning hikoya va she`rlarni o`qib tushunishi, mazmunini so`zlab berishi ko`rsatib o`tilgan. Shu ma`noda ham boshlang`ich sinf o`quvchilari o`qish kitoblari orqali asosan bolalar ijodkorlari asarlarini o`qiydilar. Jumladan, bolalar she`riyati darsliklarda alohida salmoqni tashkil etadi. Ularning aksariyati esa istiqlol davri bolalar she`riyatiga xos bo`lib, o`ziga xos shakliy izlanishlar, badiiy-kompozitsion xususiyatlarga egaki, ularni monografik tadqiqot usulida o`rganish hali kuzatilgani yo`q. Holbuki, mamlakatimizning milliy istiqlolga erishishi adabiyot taraqqiyotiga jiddiy ta`sir o`tkazdi. Shoirlarimiz adabiyotimizdagi azaliy va abadiy mavzularni xilma-xil janrlar, ohorli rang va ohanglarda ifodalashga erishdilar. Buni, ayniqsa, davr she`riyati misolida yorqin kuzatish mumkin. A.Oripov, E.Vohidov, R.Parfi, J.Kamol, H.Xudoyberdiyeva, S.Sayyid, F.Afruz, I.Otamurod, E.Shukur kabi shoirlar ham mumtoz, ham zamonaviy lirk Janrlarda ijod etib, adabiyotda lirk Janrlar rivojini ta'minlashga o`z hissalarini qo`shib kelmoqdalar. Davr she`riyatida bir qator mumtoz: g`azal, muxamma, ruboiy, masnaviy; zamonaviy: sonet, to`rtlik, uchlik, barmoq vaznidagi she`rlar yaxlit badiiy tizimni tashkil etadi. Xuddi shu xususiyatlar o`zbek bolalar adabiyoti, she`riyati tamoyillariga ham daxldor. O`zbek bolalar she`riyatining mavzu va mundarijsi, badiiy xususiyat va talqinlari yangi pog`onaga ko`tarildi. Mustaqillik davri bolalar she`riyatida mavzu rang-barangligi, janriy xilma-xillik, obrazlarning ohorliligi istiqlol farzandlari ma`naviy tafakkuriga monand taraqqiy etib bormoqda. Muhimi, ana shu hodisa boshlang`ich sinf o`qish kitoblari sahifalaridan keng o`rin olayotgani muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbliji. Mustaqillik davri o`zbek adabiyoti hayotni o`rganish-bilishning badiiy vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. U

zamondoshlarimizning, jumladan, yosh avlodning ruhiy holatini teran tadqiq etishga, fikr doirasini kengaytirishga, his va tushunchalarining shakllanib, voqelikka to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga da’vat etadi. Bugungi adabiyot tom ma’noda hayot darsligiga aylanayotgani shu jihatdan e’tirofga sazovor.

Mustaqillikning ilk yillaridayoq jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ma’nana va jismonan sog‘lom avlod tarbiyalash masalasini kun tartibiga qo‘ydi. “Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi,— deb ta’kidlagan edi, shu munosabat bilan I.A.Karimov,— aytish mumkinki, hayotining ma’nosи qobil farzandlar o‘sirish, ularni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko‘rish, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir”².

Chindan ham ilgarilari bolalar adabiyoti haqida gapirganda yosh avlodni ma’naviy, axloqiy va jismoniy to‘g‘ri tarbiyalash maqsadida ular diqqatini ijtimoiy hayotning o‘tkir muammolariga tortish – bolalarning nozik qalblariga ozor yetkazish, jarohatlash hisoblanardi. Bugungi kunda esa bolalar uchun ham ijtimoiy dolzarb mavzudagi asarlar ko‘plab yaratilmoqda. Shu bilan birga badiy saviyasi pishiq asarlar yuzaga kelayotir. Hodisa bu davrda yangicha tafakkur in’ikosi sifatida ko‘zga tashlandi. Milliy bolalar adabiyotining mazmun va mohiyatidagi tub burilish yaqqol ko‘zga tashlandi. Zamonaviy bolalar adabiyotida yosh qahramonlar xarakteri tahlili masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Bolalar adabiyoti shakl va mazmun jihatdan-da yangi tamoyillar kasb eta bordi. Adabiy tanqidchilikda bolalar adabiyotiga munosabat kuchaydi. Milliy bolalar matbuoti mavzu material, g‘oyaviy-badiiy jihatdan o‘sdi, bolalar ijodkorligi namunalari ko‘proq ommalashtirildi va rag‘batlantirib kelinmoqda.

Mustaqillik yillarida bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalariga keng e’tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining qiziqishlari, ruhiy, ma’naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali o‘quvchilarda axloqiy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirishga ahamiyat berildi. Hozirgi adabiy jamiyat taraqqiyoti

² I.A.Karimov. Sog’lom va barkamol avlod uchun. Istiqlol va ma’naviyat. T:O’zbekiston 1994, 126-bet.

bilan bog‘liq mavzu talqinlarning ustuvorligi (S.Barnoyev, E.Malikov, T.Malik asarlarida), kichkintoylar va bolalar fe’l-atvoridagi xarakter xususiyatlarning hajviy-yumoristik, fantastik, sarguzasht ifodasi (X.To‘xtaboyev, A.Obidjon ijodi) bolalar va o‘smlrlarning murakkab ruhiyat manzaralarining teran aksi (N.Fozilov, M.A’zam), keng dunyo, tabiat va jamiyat muammolarini ma’naviy-falsafiy aks ettirgan asarlar (M.A’zam, A.Obidjon, T.Adashboyev) tahlili dolzarb vazifa.

1-4-sinf o`quvchilari 540 soatdan ziyodroq o`qish darslari davomida o`zbek va jahon bolalar adabiyoti, xalq og`zaki ijodi namunalari bilan o`qish darslarida tanishadilar, shuningdek, adabiy janrlar haqida tushunchaga ega bo`lib, ifodali o`qish ko`nikmasini egallaydilar. Bunda o`qish kitoblaridan joy olayotgan badiiy ijod namunalarining salmog`i ham asosli dalildir.

O‘zbek bolalar adabiyotining so‘z san’ati sifatidagi ulug‘vor vazifasi va tarbiyachilik vositasi istiqlol yillarida alohida e’tiborga tushgani beziz emas. Bu haqda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi ta’kidlari ham diqqatga sazovor: “Ayniqsa biz uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bolalar adabiyotini rivojlantirishga alohida e’tibor berishimiz, mustaqil fikrlaydigan shaxslarning shakllanishi, har qanday kitobxonlik, mutolaa madaniyati bolalikdan boshlanishini doimo yodda tutishimiz lozim”. Chindan ham bu jiddiy vazifani bajarishda, aniqrog‘i, mustaqil yurtning har tomonlama yetuk, barkamol avlodini tarbiyalashda asrlar osha xalq an’analari, milliy qadriyatlari, folklor namunalari, asrlar bilan bo‘y o‘lchovchi milliy adabiyotimiz va jahon xalqlari adabiyotlari an’analari zaminida voqelikka aylangan o‘zbek bolalar adabiyotining o‘z o‘rni bor.

O`tgan asrning boshlaridayoq adabiyotni o`qitish masalasiga alohida diqqat zarurligini anglagan ulkan shoir va ma`rifatparvar adib Abdulhamid Cho`lpon “Adabiyot yashasa – millat yashar!”- degan umumbashariy shiorni o`rtaga tashlagan edi. Bu haqiqat asrlar davomida sinovdan o`tdi. Shunday ekan, adabiyotning boshlanmasi va umumkitobxonlikning ostonasi bo`lgan

bolalar adabiyoti, jumladan she'riyatining rivojida O`qish darsliklarining ahamiyati katta.

Mavzuning o`rganilish darajasi. Mustaqillik davri o`zbek she'riyati XX asr o`zbek adabiyotining vorisiy davomidir. U chorak asrlik taraqqiyot yo`lini bosib o`tdi. Shu bois adabiyotshunosligimizda mazkur yo`nalishda bir qator salmoqli tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, she'rshunos olim N.Rahimjonov o`zining “Mustaqillik davri o`zbek she'riyati” nomli yirik monografik tadqiqotida taniqli o`zbek shoirlari A.Muxtor, E.Vohidov, A.Orifov, R.Parfi, Farida Afro`z, I.Otamurod singarilar ijodini tadqiq etgan.³ Shuningdek, olimning “Mustaqillik davri o`zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari” nomli maqolasida davr adabiyotiga xos muhim jihatlar umumlashtirilgan va A.Orifov ijodi haqida mulohaza bildirilgan.⁴ H.Karimovning “Istiqlol davri adabiyoti” nomli keng ko`lamli tadqiqotida maxsus bob davr she'riyati talqiniga bag`ishlangan.⁵ U.Hamdam o`z tadqiqotlarida davr she'riyatini tahlil etish va muhim xususiyatlarini yoritish jarayonida she'riy janrlarga munosabat bildirgan.⁶ Shuningdek, qator maqolalarda davr she'riyatiga xos muhim jihatlar ochib berilgan.⁷ Bundan tashqari, asrimiz boshlaridayoq bolalar asarlarining g`oyaviy-badiiy, axloqiy-ma`rifiy, falsafiy va psixologik jihatdan monografik tahlili, salmoqli tadqiqotlar, risola hamda adabiy-tanqidiy maqolalarning vujudga kela boshlagani muhim hodisa edi. Binobarin, O.Safarov ("Oliy o`quv yurtlarida "Bolalar adabiyoti" fani muammolari" (1994), "O`zbek bolalar adabiyoti tarixi mundarijasini belgilashga doir" (1998), "Fol'klor va bolalar adabiyoti" (2003), S. Matchonov ("Bolalar adabiyoti: san`atmi yo tarbiya"), R.Barakaev "Jonajonim she`riyat" (1997) kabi olimlarni haqli ravishda istiqlol davri bolalar adabiyotshunosligini yangiladilar, deya olamiz. Ularning ko`pgina maqola va risolalarida o`zbek bolalar adabiyoti tarixi va muammolari

³ Rahimjonov N. Mustaqillik davri o`zbek she'riyati. -Toshkent: “Fan”, 2007. -B. 259

⁴ Rahimjonov N. Mustaqillik davri o`zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari haqida|| O`zbek tili va adabiyoti, 2006, 4-son, 10-16-b.

⁵ Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. –Toshkent: “Yangi nashr”, 2010. -B. 5-62.

⁶ Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji. –Toshkent: “Fan”, 2007, 74-91-betlar.

⁷ Fayzullayeva O. Rauf Parfi ijodida sonet || “O`zbek tili va adabiyoti”, 2007, 4-son, 56-58-b. Rahmonova S. O`zbek she'riyatida sonetning janr xususiyatlari || “O`zbek tili va adabiyoti”, 2007, 6-son, 54-56-b.

ilmiy-nazariy aspektida o`rganilib, badiiy jihatdan yuksak asarlar tahliliga e'tibor zarurligi ko`rsatib berildi. SHuningdek, olimlar o`tmishdagi bolalar kitobxonligi asoslarini o`rganish g`oyalarini ilgari surib, XX asr o`zbek bolalar adabiyoti salaflari ijodini yangi nuqtai nazarlar bilan boyitish zarurligini asoslardilar. O.Safarovning "Zamonlar tongining charoqlarisiz" (2003), "She'rim – ochil dasturxon" (2011) adabiy portretlari shu ma'noda, alohida mazmun kasb etadi.

Olim XX asr o`zbek bolalar she`riyati xususiyatlarini ochish va umumlashtirish, unda Q.Muhammadiy o`rnini belgilash, shoir ijodini xolislik bilan baholashni bosh maqsad qilib belgilaydi. Quddus Muhammadiy siymosi yangi asr ko`zgusida yaxlit namoyon bo`ladi. SHoir she`rlari mavzu mundarija, obrazlar olami, badiiy jozibadorligiga ko`ra mumtoz o`zbek adabiyoti, rus va jahon bolalar adabiyoti namunalari bilan muqoyasalanib, o`zaro ta`sir aloqalari oydinlashtirilgan.

Quddus Muhammadiyning yoniq she`rlari haqidagi mazkur kitob o`zbek bolalar she`riyatidagi yangi tamoyillarni yoritishga bag`ishlangani va bu XX asr bolalar she`riyati manzarasini tasavvur qilishga yordam beradi.

Bir asrlik tarixga ega o`zbek bolalar adabiyoti qiyofasini belgilashda R.Barakayevning "O`zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi" (2004) risolasi muhim alohida rol' o`ynadi. Bolalar adabiyotshunosligida shoirlar ijodiga bag`ishlangan tadqiqotlar qatorida B.Ashurovning "Tursunboy Adashboyevning poetik mahorati"(T., 2009) nomli kitobi ham muhim. Uning ahamiyati dastlab, muallifning o`zi to`g`ri ta`kidlaganidek, T.Adashboyev she`rlari bolalar adabiyotining yangi tamoyillari nuqtayi nazaridan tadqiq etilganidadir. Bolalar adabiyoti namoyandalari haqidagi qator to`plamlar, monografik risolalar ham o`zbek bolalar adabiyotining tadrijiy, janriy tamoyilini belgilashda muhim omil bo`layotir. Jumladan, "Bolajonlik saodati" (tuzuvchi H.Nusratova Toshkent, "Muharrir", 2011), "Beg`uborlik olami kuychisi" (to`plovchi B.Ashurov, Toshkent, 2011) singari tadqiqotlar shular jumlasidan hisoblanadi.

Ko`rinadiki, istiqlol davri she`riyatiga xos xususiyatlar ancha keng o`rganilgan esa-da, unda yuz ko`rsatgan lirik janrlar adabiyotshunosligimizda maxsus tadqiq etilmagan. Biz ushbu tadqiqotimizda hozirga qadar bajarilgan ishlarga tayangan holda davr bolalar she`riyati, uning boshlang`ich sinf o`qish kitoblaridagi ifodasidagi janrlar xilma-xilligini o`rganishga harakat qilamiz.

Bevosita boshlang`ich sinf o`qish darsliklaridagi mustaqillik mavzu ifodasi esa ilmiy-ommabop matnlarni o`rganish usuliyotiga oid darslar namunasida tilga olingan.⁸ Binobarin, o`qish kitoblari misolida istiqlol davri bolalar she`riyati talqinini o`rganish dastlabki qadamlardandir.

Tadqiqotning manbai. Magistrlik dissertatsiyasi manbai sifatida boshlang`ich sinf o`qish kitoblarining istiqlol yilarida nashr etilgan yangi avlodi va ularni o`qitishga doir tuzilgan metodik qo`llanmalar hamda istiqlol davri bolalar she`rlarining namunalari tanlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mustaqillik davri o`zbek she`riyati yangicha tamoyillar asosida taraqqiy etib bormoqda. Mumtoz va zamonaviy lirik janrlarning xilma-xillashib borayotganligi davr she`riyatining mazmun va shakl jihatidan boyishiga sezilarli ta`sir ko`rsatdi. Ishda istiqlol davri she`riyatida yetakchi bo`lgan she`rlar takomili M.A`zam, T.Adashboyev, A.Obidjon, S.Barnoyev, H.Imomberdiyev, K.Turdiyeva, D.Rajab, A.Akbar singari bolalar shoirlari ijodi misolida keng tahlil etilgan. Bu tadqiqotning yangilagini belgilab beradi.

Umuman, istiqlol yillarida boshlang`ich sinf o`qish kitoblarining bir necha avlodi yaratildi va ularda bolalar she`riyati namunalari keng ifodalanganiga qaramay, u hanuzgacha maxsus o`rganilmagan edi. Ularning mavzu mundarijasi, obrazlar olami, shakl va mazmundagi o`ziga xosliklar, g`oyaviy dolzarblik, lirik qahramon ruhiyati tahlili kabilar dastlabki urinishlardan.

⁸ Qarang: K.Qosimova va boshq. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent, “Noshir”, 2009.

Mustaqillik davri o`qish kitoblari sho`ro davridagi o`qish darsliklaridan keskin farq qiladi. Ulardagi har bir asar milliy g`urur tuyg`usi bilan sug`orilgan. O`qish kitoblarining turli mavzudagi she`r va hikoyalari allaqachon istiqlol davri o`quvchilarining, o`tkir zehnli yosh avlodlarining ma`naviy mulkiga aylanib ulgurdi. Shu ma`noda, bugungi o`qish darsliklari janr jihatdan xilma-xil, mavzu jihatdan boy va rang-barangdir. Ularda ayniqsa istiqlol davri bolalar she`riyatining o`rni alohida mavqega ega. Magistrlik ishida ilk marta istiqlol davri bolalar she`riyatining boshlang`ich sinf o`qish kitoblaridagi ifodasi, o`rni, uning ta`lim-tarbiyaviy hamda ijtimoiy dolzarb ahamiyati monografik tarzda o`rganilmoqda.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqot istiqlol davri bolalar she`riyatidagi an'anaviylik va o`ziga xos xususiyatlarni ohib berishni ko`zlaydi. Shu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot o`z oldiga quyidagi vazifalarni qo`yadi:

- istiqlol davri yangi bolalar she`riyatining maydonga kelishi;
- davr bolalar she`riyatining janriy va shakliy tamoyillari;
- O`qish darsliklarida istiqlol davri she`rlarining mavzuviy mundarijasi;
- O`qish kitoblaridagi mustaqillik davri she`riyatining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari;
- o`qish darslarida istiqlol davri she`rlarini o`rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- davr she`riyatini o`rganishning ta`lim-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dolzarbligi;
- shu asosda mustaqillik yillarda yaratilgan bolalar she`ryatining o`qish kitoblaridagi ifodasi va uning dolzarb ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asosi. O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan ma`naviyat – insonning ulg`ayish va kuch-qudrat manbai ekanligini dalillovchi fikrlari, shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti Sh. M.Mirziyoyevning 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va

kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`g`risidagi” farmoyishi, viloyatlardagi uchrashuvlarda so`zlagan ma’ruzasi, barkamol avlod orzusi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlari mazkur malakaviy bitiruv ishimizning ilmiy-metodologik asosini belgilaydi. Uniyoritishda esa boshlang’ich ta’lim metodikasi fani, barkamol avlod tarbiyasi, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy darslar, interfaol usullarga oid ilmiy-nazariy manbalar, hamda Q.Abdullayeva, R.Safarova, A.Azizova, R.Ikromova, T.G`afforova, E.Shodmonov, M.Umarova, A.Shojalilov, Q.Oripov, M.Obidova, M.Yusupov kabi metodist olimlarning asarlari metodologik asos bo’lib xizmat qildi

Dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati. Tadqiqotdagi ilmiy umumlashma va xulosalardan ona tili va o`qish metodikasi, bolalar adabiyoti va folklori, pedagogika tarixi fanlaridan ma’ruza va amaliy mashg`ulotlar o`tishda, o`rta maktabning boshlang`ich sinflarida ona tili va o`qish darslarida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning joriylanishi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusu Boshlang`ich va maktabgacha ta`lim uslubiyoti kafedrasining 2015 yil o`tgan yig`ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan. Ishning mazmuni universitet professor-o`qituvchilarining 2015-2016, 2016-2017-o`quv yillarida o`tkaziladigan an’anaviy ilmiy anjumanlarda, respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarda qilingan ma’ruzalarda o`z aksini topgan. Mavzu bo`yicha respublika va universitet ilmiy to`plamlarida ... ta maqola nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi. Tadqiqot kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalilanigan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, 85 sahifani tashkil etadi.

I BOB
ISTIQLOL DAVRI BOLALAR SHE'RIYATINING
O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

I.1. Istiqlol davri bolalar she'riyatining janriy va shakily tamoyillari

O`zbekistonning birinchi Prezidenti mustaqillikning ilk yillardayoq jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ma`nan va jismonan sog`lom avlod tarbiyalash masalasini kun tartibiga qo`ydi. “Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi,— deb ta`kidlagan edi, shu munosabat bilan I.A.Karimov,— aytish mumkinki, hayotining ma`nosi qobil farzandlar o`stirish, ularni ham jismoniy, ham ma`naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko`rish, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir”.⁹ Zotan, o`zbek bolalar adabiyoti hozirgi adabiy jarayonda yosh avlodning ruhiy holatini teran tadqiq etish, fikr doirasini kengaytirish, his va tushunchalarining shakllanib, voqelikka to`g`ri munosabatda bo`lishga da`vat etmoqda.

Binobarin, istiqlolga erishgan dastlabki kунларданоq, yoshlarimizni ma`naviy sog`lom, barkamol etib tarbiyalash masalasiga jiddiy e`tibor qaratilgани ular adabiyotida ham o`z aksini topa bordi. Bolalar adabiyoti, ushbu vazifani ado etishdagi eng muhim vositalardan biridir. Bu ishga badiiy so`z qudrati bilan hissa qo`shib kelayotgan iste`dodli shoir va yozuvchilar ijodi diqqatga loyiq. Binobarin, chorak asrlik bolalar adabiyotida hodisa bo`larli asarlar maydonga kelgani e`tirofga loyiq. Davr uchun etalon bo`lgan ijodkorlar adabiyotga yangi shakl va mazmun, mavzu va obraz, dolzarb g`oyalar olib kirgani bilan diqqatga loyiq. Xususan istiqlol davri bolalar she'riyati va nasri yangi shakl, mavzu, mazmun, janr jihatdan o`sdi. Bu bir jihatdan an'anaviy bolalar shoirlarining ijodiy imkoniyatlar tufayli yangi pog`onaga ko`tarilgani, ikkinchi jihatdan esa yangi nomlar hisobiga to`lishib borishi bilan bog`liq. Jumladan, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboev, Safar Barnoyev, Miraziz A`zam, Rauf Tolipov, Qambar O`tayev, Hamza Imonberdiyev,

⁹ I.A.Karimov. Sog`lom va barkamol avlod uchun. Istiqlol va ma`naviyat. T:O`zbekiston 1994, 126-bet.

Kavsar Turdiyeva, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab singari taniqli va yosh shoirlar adabiyotshunos R.Barakayev ta'kidlaganidek, bu davr o'zbek bolalar she'riyatiga yangi nafas, toza ruh olib kirdilar. Masalan, **Miraziz A'zam** o'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotiga barakali hissa qo'shgan shoirlardan biridir. U 1990 yilda "Bir cho'ntak yong'oq" saylanmasini e'lon qildi. Bunda shoir bolalarning qalbi va tuyg'ulari tasviri orqali olamni, odamni bilishga, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga, halol va pokiza mehnatni ulug'lashga intiladi. Uning "Qirq bolaga qirq savol" (2000) she'riy to'plami, "Eng yorug" yulduzlar" (2003) nomli mакtab sahnasiga mo'ljallangan pyesalar, tarixiy hikoyalar, maqolalar to'plami e'lon qilindi. 2005- yilda esa bolalarga yozgan asarlari "Saylanma" holida nashr etildi.

Miraziz A'zam she'riy asarlarining obrazlar olami rang-barangdir. Ularda ikki oylik chaqaloq obrazidan boshlab, turmushning achchiq-chuchugini totgan, keksa bobo-buvilar obrazigacha tasvir etilganligini kuzatish mumkin. Ammo, shoirning bolalarbop she'rlarida bola obrazi yetakchi o'rinn tutadi. Uning "Ko'zlari xayolga tomgan hoy bola" she'rida bola obrazi asosiy o'rinn egallagan. Shoir bu she'rida nimadandir ruhiy azob chekayotgan, qalbidagi hasratini bayon etolmay, cheksiz xayolotga berilgan bola timsolini gavdalantiradi. Shuning oqibatida bolaning kundan-kunga zaiflashib, ozib-to'zib borayotganidan xavotirga tushadi va unga dalda berishga shoshiladi.

Miraziz A'zamning "Yo'tal bola" deb nomlangan she'ri ham bor. Bu she'rida shoirning yana yuqoridagi kabi bolaga hamdardlik ko'rsatishga urinishini his etish mumkin. Chunki bu bola avji o'ynab-kulib, o'qib, yayrab yuradigan yoshida kattalar tomonidan bajariladigan qiyin ish – paxta yig'im-terimiga jalb etilgan...

Sobiq totalitar tuzum fojealarining badiiy ifodasi istiqlol davri bolalar adabiyotida ham noan'anaviydir. Shoir shu muammolarni qalamga olish orqali yosh kitobxonni mushohadaga undaydi. Har bir bola aynan yoshligidayoq o'zi haqida qayg'urishga o'rganishi, haq-huquqini tanishga da'vat etadi. Shu sababli ularda qofiya vazndan ko`ra fikr yetakchilik qiladi. Shoir "Tog'lik bolalarga" she'ri xalqimiz farzandlarining, yoshlaring yurtboshimiz ta'kidlaganidek, hech

kimdan kam emasligini, va dunyo arenalarida o`zbek kuyi yangrashini ishonch bilan ifoda etadi:

Siz ham boshqalardan kam emassiz.
 Uchoqlar yashashni o`rganing,
 shunday uchsinki uchoqlaringiz
 havasdan entiksin boshqalar ham.
 Siz ham boshqalardan kam emassiz,
 bizning ham ajoyib
 san'atimiz bor,
 O`zbek ohangini kiritting
 yaxmalak o`yinlariga.

Aslida ham M.A'zam she'rlarida milliy madaniyatimiz, tilimizni qadrlashga doir she'rlar o'tgan asrning so'nggi choragidayoq ko'zga tashlangan edi. Ona tili haqida qayg'urish yosh avlod ma'naviyatiga poydevor bo'luvchi bolalar adabiyotida ham shu tariqa ko'zga tashlandi, desak yanglishmaymiz. Shoirning "Til darsi" she'rini falsafiy, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan o'zlikka qaytish, deyish mumkin.

– Bolalar! Siz shunday qilasizmi hech?
 Sizning shahringizga, qishlog'ingizga,
 Mehmon kelsa, uzoq ellardan,
 Siz o`zbek tilini o'rgatasizmi?
 O`zbek so'zlarining jarangini,
 Mehmon qulog'ida yangratasizmi?

Bu "dars"ning ta'sirchanligi, muammoning dolzarbligi mustaqillik yillarida teranroq anglandi.

M.A'zamning ona tili haqidagi she'rlari istiqlol yillarida asl mohiyati bilan namoyon bo'ldi. Shoirning yosh lirik qahramoni endi o'z ona tilini kattalardan kam sevmaydi:

Ona tilim, turkiy tilim,
 Ardoqligim o`zbek tilim,

Avaylayman seni doim
Qaboq ila ko‘zdek, tilim.

She’rda o‘zbek tilining qadimligi, ko‘rki, donoligi, onaga tengligi uchun ham uni almashtirib bo‘lmasligi ta’kidlana boriladi. Shoir ona tilini avaylashni ko‘zu qaboga mengzashi ham bejiz emas. Ko‘z insonga berilgan ilohiy ne’matlar ichida eng ardoqlisi. U yorug‘ olam ma’nosi bo‘lishdan tashqari, inson botinini o‘zida namoyon etadi. Donishmandlar odamni ko‘ziga qarab, kimligini ayta olishgan. Ko‘zimizni asrash bilan nafaqat, hayot mazmunini, demakki, o‘zligimizni, ko‘nglimizni asragan bo‘lamiz. Xuddi shu xususiyat ona tiliga ham xosligini shoir:

Turkiy tilim, ko‘rkli tilim,
O‘zbek tilim, ko‘zdek tilim,

misralarida jo etgan. Muhimi, bolalarga yoshligidanoq o‘z ona tillarini sevishga da’vat etish ana shunday satrlar ta’sirida ommalashdi. Istiqlol yillarida bolalar adabiyotida bu mavzu turli ohang va mazmunda jilolandi.

Miraziz A’zamning juda ko‘p she’rlari tarbiyaviy mazmunining chuqurligi, teran mazmunni ixcham va qulay badiiy shaklda ifoda etganligi nuqtayi nazaridan boshlang‘ich sinf darsliklariga kiritilgan.

M.A’zam mustaqillik, ozodlik mavzusida ham bolalar uchun qator she’rlar yozgan. Shoir “Qo‘lni qo‘lga beraylik”, “Nima yaxshi-yu, nima yomon” she’rlarida do’stlik, hamjihatlik, ona-Vatanga cheksiz muhabbat, odobli bo‘lish, sidqidildan o‘qish uchun intilish, kurashish kabi masalalarni ko‘proq ochib berishga harakat qiladi. Shoir bolalar uchun turli janrlarda ijod qildi. Ayniqsa, uning ijodida doston, adabiy ertaklar ko‘p uchraydi. Shoir xalqning ertakchilik tajribalariga murojaat etar ekan, avvalo, o‘z asarlarining g‘oyaviy-badiiy va mavzuiy jihatdan barkamol, qiziqarli bo‘lishiga ham erishishni ko‘zda tutgan. U o‘zi yaratgan asarlarning xalqchil bo‘lishi uchun ertaklardan mahorat bilan foydalandi. Shoirning barcha ertaklarida yaxshilik yomonlikka, soddalik ayyorlikka, olijanoblik yovuzlikka, go‘zallik xunuklikka qarshi qo‘yiladi. Insonga mehru muhabbat ulug‘lanadi.

T.Adashboyev ijodi va faoliyati istiqlol yillarida yuksaldi. Bu davr T.Adashboyev ijodiy kamolotiga rivoj qo'shdi. U sermahsul ijod bilan mashg'ul bo'ldi. Uning ona-Vatan, kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproq, milliy, tarixiy, madaniy va adabiy qadriyatlarimiz haqida to'lib-toshib kuylovchi, yosh avlodni ularga sadoqat ruhida tarbiyalashga da'vat etuvchi "Uch bo'taloq va sirli qovoq" (1990), "Topishmoqli alifbe" (1997), "Oltin yolli tulpor tulpor qissasi" (2003), kabi to`plamlari, "Orzularim – qo'sh qanotim" nomli saylanmasi (2003) chop etildi. Shunga yarasha shoir ijodi tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilib, monografiya va risolalarda o`z ifodasini topdi.¹⁰

Mustaqillik davri bolalar adabiyotining yangi obraz va mavzular bilan boyishi, jahon bolalar adabiyoti durdonalari bilan to`lishishida T.Adashboyev ijodining alohida o`rni bor. Yetuk olim I.G`afurov ta'biri bilan aytganda: "Uning she'rlarida tog` yonbag`ridagi echkilar, kiyiklar o`zlarini qanday erkin tutsalar, so`zlar ham shu kiyikday javlon o`ynaydi... hech narsadan xavflanmaydi, qo`rfquv tuymaydi". Olim shu o'rinda bolalar adabiyotining muhim nuqtasiga diqqatni qaratadi: "So`z shunday erkin bo`lishi uchun bolalar adabiyoti bo`lishi kerakmi yoki bolalar adabiyoti bo`lishi uchun so`zning shunday erkli bo`lishi kerakmi?", – degan jiddiy savolni qo'yadi.¹¹ Darhaqiqat, istiqlol davri o`zbek bolalar adabiyotining yangi tamoyillari, badiiy yuksak hamda mazmunan dolzarb namunalari aynan so`z va fikr, mavzu va g`oya erkinligi asosida yuzaga chiqdi. Shaklning o`ynoqi va xalqona ohangi, mazmunda kesatiq va kinoya, ramziylikning ustuvorligi T.Adashboyev ijodining davr bolalar adabiyotidagi o`ziga xosligini belgilaydi. Taraqqiyot sari intilish – zamonlar uchun qonuniyat. Lekin taraqqiyot munis o't-o'lanlar o'sgan jaydari yerlarni bosib-yanchib o'tmasligi, bir-biriga oqibatli mehnatkash chumolilarning uyini buzmasligi kerak. Fan-texnika nechog'li taraqqiy etmasin, inson bolasi, o'zini eng avvalo ona

¹⁰ Bu haqda qarang: B. Ashurov. Tursunboy Adashboyevning poetik mahorati. T., "Fan", 2009; yana: Hozirgi o`zbek bolalar adabiyoti va Tursunboy Adashboyev ijodi. –Kitobda: Beg`uborlik kuychisi. Maqolalar to`plami. T., "Navro`z", 2011. –B.38. Yana: R.Barakayev, B.Ashurov. Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar. T., 2014.

¹¹ Qarang: Beg`uborlik kuychisi. Maqolalar to`plami. T., "Navro`z", 2011. –B.54

tabiat bag‘rida to‘laqonli his etadi. Katta zamonaviy shaharlarda tug‘ilib o‘sgan bolalar qishloqqa borib qolsa, mitti qo‘ng‘izcha bilan kun-tun o‘ynab zerikmasligida hikmat ko‘p. T. Adashboyev she’rlarining qahramonlari “Loyni bir oz tindirib suv zahrini sindirib” g‘isht quyayotgan, “Sapchib oqqan suv bilan kim o‘zarga yugurgan”, xolasiga yordam uchun “... nonni botirib, qotirib qaymoq yegan”, “Tog‘dan ko‘tarilgan quyoshni onasi yopgan patirga” o‘xshatgan, buvisining ajinlariga qarab “Dazmol bosib olsangiz, tekis bo‘lib ketardi”, deb maslahat beradigan, kun bo‘yi bog‘dagi sirpanchiqda “vagon” bo‘lib uchishgach, “Oqshomuya... Shimning orti suzilib” qaytadigan quvnoq, topqir, xayolkash, mehnatkash, zavqi-yu ishtahasi tobida bo‘lgan bolalar. Ayrim she’rlardagi voqelik, tuyg‘ular kechinmasidan shoir bu she’rni o‘z boshidan kechirganlari ta’siridanmi yoki kuzatganlari asosida yozganmi–bilinib turadi. Lekin T. Adashboyev she’rlarida bunday chegara yo‘q – oddiy chizgilardan salmoqli voqealargacha lirik qahramonning yuragidan o‘tgan.

Ag‘darishmachoq soz o‘yin,
Polvonlar egmas bo‘yin.
Davrani keng olamiz.
Chunki tengqur bolamiz.
Shaylandim minib eshak,
Akmal ham chiqdi beshak.
Tushim ekan, xayriyat.

Bu she’rlardagi kitobxonga eng yoqadigan xislat – samimiyat, xolislik. Shoir bolalar, kattalar tabiatining, o‘zligining yarq etgan bir qirrasini ko‘rsatib qo‘yadigan manzara, voqea, bahsning suratini so‘zlarda chizadi. Shu orqali o‘quvchilarni bag‘ri kenglikka, mustaqil mushohada yuritishga o‘rgata boradi. Bolalar arzimagan bir xasdan ham kashfiyot qilishlari, uni langarcho‘p deb miriqib o‘ynashlari mumkin. Ba’zan farzandlarimiz ertak qahramonlariga aylanadilar: gullar bilan suhbatlashadilar, xazonlarni qayiq qilib sayohatga chiqadilar, nima uchun qushlar ularning qo‘liga qo‘nmayotganidan ajablanadilar... Dunyo bolalar adabiyotida kichkintoylarning shu xislatiga asoslangan ajoyib ertaklar bor. T. Adashboyev ijodida ixcham, manzara she’rlar

borki, bolalar uchun filmlar yaratuvchi mohir rejissor ular asosida ajoyib asarlarni suratga olishi mumkin. Mana bu to‘rt qator she’r go‘yo multfilmday.

Boychechaklar nish urib,
To turguncha o‘rnidan
Bahor qishni tarnovga
Osib qo‘ydi burnidan.

Yoki,

Tolning bargi suvgaga tushib
Qayiq bo‘ldi.
Bu ayniqsa qumursqaga
Loyiq bo‘ldi.
Qo‘sh qirg‘oqni to‘lqin yalab
Ko‘kka sapchir,
Eshkakni-chi, o‘zi yakka
Eshar abjir.
Teng-tushlari qoldi gap-so‘z
Tayinlashmay.
Qumursqa ham jo‘nab ketdi
Xayrlashmay...

Tursunboy Adashboyevning turli davrlarni, ya’ni o‘zining bolalik yillarini eslatuvchi she’rlarini, farzandlarining bolaligini tasvirlovchi she’rlarini – barchasini ichki bir yaxlit tuyg‘u – mehr, mehribonlik birlashtirib turadi. Shoir yaratgan obrazlarning hayotiyligi bola tabiatiga yaqinligidadir. Uning “Do‘ppi”, “Kesib turdim”, “Mayiz” she’rlari quvnoq humor bilan sug‘orilgan. Kichkintoylarning goh sodda, goh beg‘ubor, goh esa ozgina quv, ayyor xarakteri ochib beriladi. Aytaylik, “Mayiz” she’rining qahramoni Lola ismli jajji qizcha. U mehmon tog‘aning savollariga juda aqlli javob qaytaradi:

- Oting nima, qizaloq?
 - Men-mi, tog‘a, Lolaman.
 - Ol mayizdan bir hovuch,
 - Yo‘q, odobli bolaman.
- Hovuchingiz kattaroq,
Siz bersangiz olaman...

She’rda bolalarning o‘ziga xos topqirligi ham aks etib turibdi. Chunki, qizcha mayizdan o‘zi olib yesa odobsizlik ekanini biladi, mehmon tog‘a olib bersa, uning qo‘lini qaytarib bo‘lmaydi-ku, axir...Mehmon tog‘aning hovuchi ancha kattaligi esa ayni muddao.

“Alam, alam” she’rida Lolaning teskarisi bo‘lgan Saida ismli qizaloq xarakteri yaratiladi.

- Betoqat qiz Saida
Sensan nafsing payida,
Turmaysan dasturxonidan
Uyalmaysan mehmondan.
Uyat-uyat!
- O‘zing anor yeyolmay,
Ozgina ber deyolmay,
Ko‘zing to‘rt-ku bechora,
Ololmasang ne chora,
Alam-alam!

Ko‘rindiki, T.Adashboyevning juda ko‘p she’rlarida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar va qizaloqlarning turli fe’l-atvorlari quvnoq va samimiy talqin etiladi. Kichkintoy lirik qahramonlar goh o‘zlarining soddaliklari tufayli kulgili holatga qoladilar, gohida o‘zlarini dono hisoblab, kattalarga gap uqtiradilar: tuflilari eski bo‘lmasligi uchun sandiqqa solib qo‘yadilar, kiyishga qizg‘anib, asrab yurgan tor kelgan shimni katta bo‘lsam kiyaman deydilar, do‘ppisini o‘rtoqlari koptok qilib tepganda darvozabon bo‘lgani uchun choki so‘tilganida ham o‘zini aybsiz hisoblaydi, yoki qo‘g‘irchoqlari-o‘quvchilarining barchasiga qattiqqo‘llik bilan ikki qo‘ygan “o‘qituvchi” barcha beshni o‘ziga qo‘yadi va h.k.

T.Adashboyev ertak va she’rlarida zamondosh o‘quvchiga ma’naviy-ma’rifiy oziq bera oladgigan qahramonlar, obrazlar hamda detallar ko‘p. Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” sahifalaridan uning she’rlari muntazam joy olib kelayotgani ham buni asoslay oladi. Anchayin zukko va tafakkuri teran zamondosh kichkintoylarni shoirvning “Beshta arra”, “Farqi bitta harfdadir”, “Topishmoqli alifbe” kabi she’rlari yanada topqirlilikka o‘rgatadi. Masalan, “K” harfiga bag‘ishlangan topishmoq:

“K” uchraydi	“nisholda”da
“karnay”, “kalish”,	“Nay”da bo`lar.
“Chelak”da	“Nargis”, “namat”...
“Kakku”dagi	toping, yana
“k”ni ajrat	
Elakda	Qayda bo`lar?
“Nashvat”, “novvot”,	

Vatan, ona, qadrdon shahar yoki qishloq, saxovatli tabiat, ko‘ngli daryo odamlarga mehru muhabbatimiz rishtalarini bog‘lagan o‘tgan kunlarimizni sog‘inamiz. Shu sog‘inchning ildizlari qalbimizda qanchalar chuqur bo‘lsa, demak, taqdir bizni siylabdi. Tursunboy Adashboyev she’rlarida hammadan oldin Vatanning muqaddas ostonasi bo‘lgan ona qishloqqa juda yoshligidan o‘ychan termulgan, undagi har bir mavjudlikni ixlos bilan ardoqlagan; sodda-yu to‘pori, qismati mehnat va yana mehnat bo‘lgan, odamlarni yoshiga nisbatan ulug‘roq nigoh bilan kuzatgan qalb manzaralari ko‘zga tashlanadi. Va muhimi ana shu bobomeros tuyg`ularni bugungi yosh avlod qalbiga singdirishda shoir xizmati beqiyos. Uning “Tuproq” she’rida shunday misralar bor:

Ajdoddlardan meros bo`lib,
 Qolgan tuproq.
 Bobolarning qon va teri
 Tomgan tuproq.
 To`kin-sochin dasturxonni
 Solgan tuproq.
 Dori-darmon, sinovlardan
 Tolgan tuproq.
 Qotilni ham, botirni ham
 Sukut saqlab,
 Ehtiyyotlab, o`z bag`riga
 Olgan tuproq.

Hech shubhasiz, bu satrlar istiqlol shabadalari yelkasini silab turgan har bir o`g`il-qizga o`tmish va o`zligimizni, tarixiy qadriyatlar hamda haqiqatlarni yaxlit tasavvur etish, u haqda mushohada yuritishga yordam beradi.

Tursunboy Adashboyev jahon va qardosh xalqlar bolalar she’riyati namunalarini o`zbek tiliga tarjima qilish orqali ham milliy bolalar adabiyoti xazinasining boyishiga hissa qo`shdi

Safar Barnoyev XX asrning 90-yillari va XXI asr boshlarida alohida g’ayrat va shijoatga to`lib ijod qildi. Uning bu yillarda “Yangi kunlar“ (qissa, 1990), “Nilufarning olmalari“ (hikoyalar, 1996), “Kichkina Xo‘ja Nasriddin“ (qissa, 1998), «Sayroqi bedanalar» (2007) singari kitoblari nashr etildi. H.Nazir ta’biri bilan aytganda, eng yaxshi asarlari bilan muallif mustaqillik davri bolalar

adabiyoti mazmun va ohangining yangilanib tug`ilishiga doya bo`lolganlar qatoridan o`rin oldi. Shuningdek u qizgin ijtimoiy faoliyat bilan ham shug`ullandi. Dastlab, Respublika Xalq ta`limi vazirligida matbuot maslahatchisi bo`lib ishladi. Mamlakat miqyosida ijodkor o`qituvchilar tanlovlaringin an'anaga aylanishiga tashabbuskor bo`ldi. So`ngra umrining oxirigacha bolalarning sevimli nashri – «Gulxan» jurnali bosh muharriri lavozimida ishlab, unda bolalik olamini butun murakkabligi bilan ko`rsatishga ayricha e'tibor berdi. Natijada jurnalning mazmuni ham, badiiy bezalishi ham tubdan yangilanib, g`oyat o`qimishli va betakror nashrga aylandi. Shu davr mobaynida uning she'riyati alohida bo`y ko`rsatdi. Ijodkorning «Urush bolalari», «Tunda osoyishtalik cho`kkanida borliqqa», «Jabbor otaning aytganlari», «Uka, men senga aytsam», «O`ttiz yoshlilar», «Mening o`z burchim bor», «Bobomning qo`llari», «Otamning o`rtoqlari» singari qator she`rlari inson taqdiri masalasini poetik tadqiq etishda o`ziga xos yo`nalishga ega. Ularda, avvalo, qalbning iztirobli tajribalari – dardlari muhrlangan; u aynan shu avlodning qalbidan silqib oqqan, ko`z qorachig`iga tugilib qolgan dard. Shu boisdan ham ijodkor ushbu mavzuni poetik idrok va ifoda qilishdagi o`ziga xosligi bilan ahamiyatli. Shoirning aksariyat she`rlarida urush va inson taqdiri masalasini turli qirralardan yoritishga mayl kuchli:

Asrim shoshirib qo`ydi
Bugun inson aqlini.
Bizlar unutdik tanish
Uchburchak xat shaklini.
Ammo unutmadiq, yo`q
Sog`inchning dardlarini
Yer emas, qalbga ko`mdik
Yurtimiz mardlarini.

Yoki:

Maysalarning labidan
Ko`karib chiqdi kulgu.
Kulgularga o`ralib
Yurakda qoldi qayg`u.
Quyosh bir qalqib ketdi,
Og`ir xo`rsindi tuproq.
Bag`rimga bosh qo`ydi, deb

Yigirma million chaqmoq.

S.Barnoyevning “Qo`shni kampir iltijolari” she’ri esa farzand dog`ini obdon tuygan ona siymosini gavdalantiradi.

Qari tutning shoxlaridek suyaklarim mo`rt bo`ldi,
 Yo`lingizga qarayverib, bu ko'zlarim to`rt bo`ldi,- degan satrlar bilan boshlanuvchi bu she’rda onaning hasratlari lirik qahramon hikoyasi tarzida bayon qilingan. Uning qo`shnisi bo`lmish o`sha kampirning uch o`g`li ketma-ket urushga ketadi va uchchallasidan ham qora xat keladi. Ularning yo`liga ko`z tutaverib, g`amdan mung`ayib qolgan kampirning nolalari chinakam yig`iyo`qlovni eslatadi:

Omon o`g`lim!
 Davron o`g`lim!
 Sulton o`g`lim!
 Jon o`g`lim!
 Oy-yulduzim, boshimdagi osmonlarim edingiz,
 Alpomishday, Alpomishday posbonlarim edingiz,
 Elu yurtga ko'z-ko'z qilgan posbonlarim edingiz...
 Men chiroyda oy edim,
 Bag'rim butun, boy edim.
 Uch o'g'lim bor, uch shunqorim,-
 Deya hotamtoy edim.

Kampir uch o`g`il tuqqanida sevinchlarga sig`magani, har bir o`g`lining nomi o`z mazmuniga ega ekani, ularni umumlashtirib “Jon o`g`lim- deb atashi bejiz emasligini aytib bo`zlaydi:

Avaylagan, asragan yurakdan darmon ketdi,
 Qora bo`ldi kunduzim, boshimdan osmon ketdi.
 Sizni ketma-ket tug`dim,
 Deyishgandi katta baxt,
 Ketma-ket uchingizdan,
 Kelib qoldi qora xat.
 Qonga to`lgan yuragim mozorlarga aylandi,
 Hasratlarim tugamas bozorlarga aylandi.

Shu tariqa, lirik qahramon qo'shni kampirning faryod to`la dardini, o`z o`g`illarini so`ray-so`ray quyoshdayin ufq sari botib borishini, demakki umri poyoniga yetayotganini afsus bilan tilga oladi. Urush mavzusi

umumadabiyotning turli janrlarida keng ifoda etilgani rost. Ammo bolalar adabiyotida bu mavzuni Safar Barnoyevchalik qalb amri, yurak qoni bilan bitganlar kam uchraydi. Zotan, u bolalar adabiyotini nafaqat bu mavzudagi asarlari, balki ularda qo'llagan rangin ohanglar, ohorli tashbehlar, yangicha shakl va mazmun hamda folklorizmlar bilan to`yintirishga erishdi.

Shoirning “Jabbor otaning aytganlari” she’ri ham shu nuqtayi nazardan qahramon jangchilarni bag`rida avaylab voyaga yetkazgan, ularning orzu-havasini, rohatini ko`ray deganda undan ayrib, yurak-bag`ri dog` bo`lgan ota obrazi tasvirlanadi. Ota o`g`lini urushga kuzatgan vaqt ni shunday xotirlaydi:

O`rik pishgan payt edi,
Tagiga tushgan payt edi.
Mening o`g`lim-Kamolim
Xo`p t`lishgan payt edi.
Olmosim deb atardim,
Tolmasim deb atardim,
Chavandozim izimdan
Qolmasin deb atardim.
Ko'pga kelgan to'y ekan... kuzatib qo'ydim jangga,
Borlig'im, jonim bilan baxshida deb Vatanga...

Jabbor ota endi o`g`lidan hamon darak yo`qligini o`tgan yillar voqealari bilan qiyoslaydi. Toy olgani ot, kelin qilaman degan qiz bugun katta ayol ekani, ammo endi ko`zda nur qolmagan, boldirlari og`riganda orzulari o`ziga begonaligini nadomat bilan eslaydi. Ota o`tgan umrini ko`z oldiga keltirib:—Yashayapman, men nochor, O`z mehrimga isinib, Deyishar:—juda yomon, bolalar yetim qolsa! Men deyman: —Juda yomon otalar yetim qolsa...

S.Barnoyev ijodiga alohida e'tibor qaratgan olimlardan N.Rahimjonov fikricha, e'tiqod tuyg`ulari, yaxshi xulq yoki yaxshi odat malakalari inson bilan birga tug`ilmaydi. Ularni jamiyat va odamlar shaxs tabiatida tarbiyalab kamolga yetkazadilar, ya’ni, ushbu fazilatlarni biz hayotimiz badalida o`qish, o`rganish, turli xil tarbiya ko`rinishlari orqali o`z shaxsimizda shakllantirib boramiz. Shaxsning ma’naviy saviyasini, intellektual darajasini voqelikning ijtimoiy-falsafiy asoslari belgilab beradi. Safar Barnoyev she’rlarining yoshlar

tarbiyasida salmoqli o`rni, burchi – vazifasi bor. Bu o`ziga xoslik– ota-bobolarning ezgu ishlariga sadoqatda ko`rinadi.

Shu ma’noda, S.Barnoyev garchi istiqlolning dastlabki o`n yilidangina bahramand bo`lib, o`zgacha g`urur bilan ijod etgan bo`sada, bolalar adabiyotiga, jurnalistikasiga yangi nafasni olib kirgan, hatto chorak asrlik asarlar bilan bo`ylasha oladigan salmoqqa muyassar bo`loldi. Uning she’r va hikoyalari, qissalari har bir farzandning yon atrofda kechayotgan jarayonlarga befarq bo`lmaslik, Vatanni, Istiqlolni qadriga yetish, undan iftixor qilish tuyg`usini his qilishga undaydi. Shuningdek, ijodkorning she’riy va nasriy, publitsistik asarlari ota-bobolarimiz yaratgan moddiy va ma’naviy qadriyatlarni ko`z qorachiig`idek e’zozlash, shunga munosib avlod bo`lib kamolga yetish ruhi ustuvor.

S.Barnoyev qaysi janrda ijod qilmasin, urush bolalari taqdiri mavzusi uning asarlaridagi o`q chiziq edi. Binobarin, Safar Barnoyev yigirmaga yaqin she’riy va nasriy kitoblar bitib, o`zbek bolalar she’riyati va nasrini goho hazin, goho quvnoq ruhiyatga sug‘orilgan she’rlar-u, hayajonbaxsh adabiy ertaklar, xilma-xil mavzulardagi hikoyalar-u qissalari bilan boyitdi.

U istiqlol tufayli mamlakatimizda bolalikka munosabatning tubdan qayta qurilayotganiga teranroq razm soldi. Bu hol uning ijodida bolalik muammolaridan bahs etuvchi publitsistikaning faollashuviga yo‘l ochdi. Zotan, uning davr ruhiyatiga sug‘orilgan qator dolzarb publitsistik maqola va ocherklari yuzaga keldiki, bular XX asrning so‘nggi choragidagi o‘zbek bolalar publitsistikasi qiyofasini belgilashda muhim omil bo`lib hisoblandi.

Anvar Oobidjon bolalar shoiri, adibi va dramaturgi sifatida istiqlol yillarida “Yerliklar”(1990, hajviyalar), “Alamazon va Gulmat hangomasi” (1992, qissa, pyesa, she’r), “Ajoyibxona” (1993, she’riy taqvim), “Meshpolvonning janglari” (1994, qissa va doston), “Alisher ila Husayn yoki uch dono va o‘g‘ri” (1996, doston va she’rlar), “Alamazon va Gulmat” (1998, qissa va she’rlar), “Oltiariq hangomalari”, (1999, hajviyalar), “Bulbulning cho‘pchaklari” (2001, she’r va hikoyalar), “Odobli bo‘lish osonmi?” (2001,

hikoya), “Meshpolvon” (2003, qissa), “Bezgakshamol-2” (2003, hajviy she’rlar) kabi to‘plamlari chop etildi.

Respublika yosh tomoshabinlar teatri hamda Farg‘ona, Qarshi, Qo‘qon, Guliston teatrlarida Anvar Obidjonning “Qo‘ng‘iroqli yolg‘onchi”, “Pahlavonning o‘g‘irlanishi”, “Topsang, hay-hay”, “To‘tiqul”, “Qorinbotir”, “Navro‘z va Boychechak” pyesalari sahnalaشتirilgan. Uning asarlari asosida “O‘zbekfilm” kinostudiyasi tomonidan “Tilsimoy-g‘aroyib qizaloq”, “Dahshatli Meshpolvon” komediyalari kino tasmasiga tushirilgan. Anvar Obidjon she’rlariga bastalangan qo‘shiqlarning asosiy qismi bolalarga bag‘ishlangandir.

Anvar Obidjon sheriysi obrazlar olamining kengligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Aytaylik, “Siz eshitmagan qo‘shiqlar” turkumida ellik besh qo‘shiq bor. Bu o‘rinda “qo‘shiq” atama sifatida qo‘llanmaydi. Balki, turli jonivorlar, qushlarning sayrashi, yoxud predmetlarning kechinmasi tarzida berilib, ramziy mohiyat kasb etadi. Masalan, “Kaklik qo‘shig‘i”, “Koptoklar qo‘shig‘i”, “Chirmanda qo‘shig‘i”, “Miltiqcha qo‘shig‘i”, “G‘ulg‘ultovuq qo‘shig‘i”, “Qirchang‘i qo‘shig‘i”, “Shippak qo‘shig‘i”, “Ruchka qo‘shig‘i” kabilar. Jumladan, “Bedana qo‘shig‘i” shunday yangraydi:

Mayli quring to‘r qafas
Pit-piliq,
Hech yo‘q, sayrab tursam bas,
Pit-piliq,
Azal erkindir zog‘lar,
Pit-piliq,
Qafasdadir sayroqlar
Pit-piliq

Shoir xulosasi shuki, zo‘r sayroqi qushlarni qafasga soladilar, zog‘lar ozod yuribdi. Anvar Obidjon she’riyatining yana bir ahamiyati, shoir she’rining rang-barang shaklidan foydalangan. Bir misrali she’r, ikki, uch, to‘rt, besh misrali she’rlar: bu bandga ko‘ra rang-baranglik. Ayni damda, to‘rt hijodan boshlab, to‘qqiz hijo, ba’zan o‘n bir hijoli she’rlar yaratgan. “Chumoli” she’ri ancha sodda:

Qayga borar
Chumoli

Boshda parang
Ro‘moli
Yelkasida chamadon
Chamadonda
Arpa non

Shoir she’rlarining kaliti sarlavhasidadir. Aks holda bunday she’rlar oddiy bir qofiyabozlikdan iborat bo‘lib qoladi. Masalan, “Quyonning tug‘ilgan kunida” she’rining sarlavhsi bo‘lmasa uning mohiyati ochilmaydi, she’r ma’noga ega bo‘lmaydi. Chunki tug‘ilgan kunda:

Ari keldi.
Asal olib,
Echki qopga
Karam solib
Ayiq keldi
Qoshiq bilan
Bo‘ri – pichoq
Sochiq bilan.

Shundagina har bir hayvonning o‘zi nimani xush ko‘rsa o‘shani ko‘tarib kelgani ayon bo‘ladi.

O‘zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotida o‘z o‘rni, hissasi bo‘lgan shoir she’riyati o‘ziga xos shaklga, obrazlar tizimiga qofiyalanish tartibiga egaligini alohida qayd etgan Z. Ibrohimova yozadi: “... u bola dunyoqarashidagi o‘ziga xosliklarning tub-tubini ko‘ra oladi. Ichki olamni, o‘y xayollarini, kichik qalbida kechayotgan jarayonlarni, nozik did bilan kuzatadi. Bir qaraganda, juda oddiy ko‘rinadigan kichik-kichik she’rlarda inson tabiat shakllanishining dastlabki bosqich jarayonlari keng ko‘lamda tahlil etib berilgan”.¹²

Darhaqiqat, Anvar Obidjon bolalarga shunchaki yozmaydi. Uning she’rlari o‘quvchiga ta’lim va tarbiya beradi.

Shoirda she’riy topishmoq deyishga loyiq she’rlar bor. Faqat shoir dastlabki satrlarda yoki nomida o‘sha jismning nomini berib qo‘yadi. “Baqlajon”, “Mosh”, “Handalak”, “O‘rik”, “Pista”, “Sarimsoqpiyoz”, “Qalampir” kabi she’rlarida shunday holatni ko‘rish mumkin. Ammo “Ho‘kizning tarjimai holi”, “Maymunning tarjimai holi”, “Qizilishtonning

¹²Ibrohimova Z. Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar. Toshkent, 2005. –B.17

tarjimai holi” kabi she’rlaridan sarlavhani olib tashlanishi kifoya: bola uchun topshiriq tayyor bo‘ladi. Bu turli yoshdagi har xil saviyadagi bolalarni fikrlashga o‘rgatadi.

I.2. Istiqlol davri bolalar she’riyatida an’ana va novatorlik

Mamlakatimizning milliy istiqlolga erishishi adabiyot taraqqiyotiga jiddiy ta’sir o`tkazdi. Shoirlarimiz adabiyotimizdagi azaliy va abadiy mavzularni xilma-xil janrlar, ohorli rang va ohanglarda ifodalashga erishdilar. Jumladan, o`zbek bolalar she’riyatining mavzu va mundarijasi, badiiy xususiyat va talqinlari yangi pog`onaga ko`tarildi. Mustaqillik davri bolalar she’riyatida mavzu rang-barangligi, janriy xilma-xillik, obrazlarning ohorliligi istiqlol farzandlari ma’naviy tafakkuriga monand taraqqiy etib bormoqda. Muhimi, ana shu hodisa boshlang`ich sinf o`qish kitoblari sahifalargidan keng o`rin olayapti.

Hayot haqiqatidan ma’lumki, shoirning falsafiy tafakkuri, hayotiy mushohadasi lirik qahramon, poetik obrazlar, ramzlar vositasida berilsa, davr ruhining, xalqning orzu-istikclarining, inson kechinmalarining ta’sirchan va yuqimli bo`lishiga imkon yaratiladi. Bugungi she’riyatda shunday qilinyapti. Shuningdek, bugungi she’riyatda azaliy an’analarga bo`ysunmaydigan yangi yo`nalish, yangicha usul yuzaga keldi. Bugungi kun adabiyoti kechagi adabiyotdan bir qancha xususiyati bilan farq qiladi. Ya’ni odamning qalb iztiroblari, quvonchlarining betakror tahlili va ruhiyatining turfa ko`rinishlari inkishofi hamda voqeа-hodisalar tasvirining batafsilligi, ularning har biri maqsad sari yo`naltirilganligi, qahramonlarning o`ta milliy va individuallashganligi, bozor iqtisodining mohiyatini ochib berishi ila o`ziga xoslikka ega. Agar umumlashtirib aytsak, voqeа-hodisadan ko`ra, insonning, uning qalbi tahlili birinchi o`ringa chiqqanligi bilan ajralib turadi.

Insoniyatning o`zi hali to`la ma’noda mukammal emas. Shundan komil insonni yuzaga keltirish san’at va adabiyotning azaliy mavzusidir.

She'r-so'z san'ati, tafakkur madaniyati sifatida vujudga kelgan olis-olis zamonlardan buyon uning eng azaliy va eng yangi o'rganish ob'ekti inson. Bugungi poetik jarayonda inson bilan jamiyatni yaxlit birlikda o`rganish, odam tabiatidagi intellectual-axloqiy fazilatlar bilan barobar fe'li-faoliyatidagi illatlarni poetic idrok va ifoda etish ustuvorlik qilmoqda. Hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirish, jamiyat psixologiyasi bilan inson ruhiyatini vobasta tadqiq etish, olis moziy voqeligiga, buyuk ajdodlar hayoti bilan taqdiriga murojaat orqali bugungi kunning ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy muammolariga javob izlash bolalar she'riyatining ham bosh maslagiga aylandi.

Istiqlol tufayli ma'naviy qadriyatlarga, madaniyatga, jumladan, so'z san'atiga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi. Yangi davr nafaqat adabiyotimiz tarixiga balki zamonaviy adabiy-badiiy jarayonga ham yangicha g`oyaviy-estetik mezon bilan yondashishni taqozo qildi. Hozirgi o'zbek she'riyatining ma'naviy miqyosi, badiiy salohiyati sezilarli darajada o`sdi. Unda zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg`ularni aks ettirish barobarida, she'riyat jamiyatimizning har bir a'zosida mustaqillikka shukronalik, porloq kelajakka bo`lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mustaqil davlatimizning ertangi kuni, uning gullab-yashnashi va rivojlanishi ko`p jihatdan o'sib kelayotgan avlodning har tomonlama etuk va sog`lom bo`lishiga bog`liq. Bu esa, o'z navbatida, Vatanimizning kelajagi – farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ham bu borada: «Biz sog`lom avlodni tarbiyalab yetkazishimiz kerak. Sog`lom kishi deganda faqat jismoniy sog`lomlikni emas, balki sharqona odob-axloq va umumbashariy g`oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz», – deydi.

Yosh avlodning ma'naviyatini rivojlantirishda esa bolalar adabiyotining alohida o'rni bor. Ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga

etkazishda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar adabiyoti sohasida yaratilgan aksariyat badiiy asarlar yosh avlod tarbiyasida yuksak ma'rifiy, estetik ta'sir kuchiga egadir. Bunday asarlarni aniqlab, ularning bola tarbiyasidagi roli va ahamiyatini maxsus o'rganishga, bu haqda yaxlit ilmiy tasavvur uyg'otuvchi tadqiqotlar yaratishga to'g'ri keladi. Chunki bolalar adabiyoti durdonalari bola tarbiyasida nafaqat badiiy-estetik, balki ijtimoiy mohiyat ham kasb etadi. Ayniqsa, bolalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda ularning ta'siri kattadir. Shuning uchun hozirgi paytda ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar adabiyotining eng sara namunalari tanlab olinib, boshlang'ich sinf darsliklariga kiritilmoqda va ulardan muhim tarbiya vositasi sifatida foydalanib kelinmoqda.

Istiqlol davri she'riyatiga xos xususiyatlar ancha keng o'rganilgan esa-da, bolalar she'riyatida bu jihat kemtik. Jumladan, ayrim ijodkorlar she'riyatining o'ziga xosliklari tahlil va tadqiqotga ehtiyojmand. Bu davr shoirlar she'rlarida shakl va mazmun yangilandi. Bolalar she'riyati qariyb bir asrga yaqin vaqt davomida mavzular, shakily va obrazlar talqini jihatdan qoliplashgan edi. Ularning aksariyati badiiy ko`lamdorlikdan yiroq edi. O'tgan asrning 80-yillarining ikkinchi yarmi va 90-yillardan boshlab esa o'zbek bolalar she'riyati istiqlol g'oyasidan bahra olib ohorli tashbehtar, badiiy-tasviriy vositalardan foydalana boshlandi. Mazkur davrda avvalgi avlodga mansub Safar Barnoyev, Miraziz A'zam, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon singari bolalar shoirlari istiqlol g'oyasini tarannum etuvchi, she'riyatning noan'anaviy tur va shakllaridan foydalanib ijod qila boshladilar. Ayni paytda yangi davr ruhi bilan sug'orilgan lirik ijodning yosh iste'dodlari ham yetishib chiqqa boshladi. Istiqlol bilan hamnafas adabiyotda o'z o'rniga ega bo`lgan H.Imonberdiyev, K.Turdiyeva, D.Rajab, A.Akbar kabilar esa yosh avlodning ehtiyojlargini inobatga olib mazmun va shaklda she'r va dostonlar yozib jarayonning faollashuviga hissa qo'shdilar. Jumladan,

H.Imonberdiyev bolalar adabiyotining rivojiga hissa qo`shgan adiblardan. U uzoq yillar “Tong yulduzi” gazetasida, so`ngra 1986-yildan umrining so`nggi damlarigacha “Cho`lpon” bolalar nashriyotida faoliyat ko`rsatgan. Uning turli yillarda nashr qilingan “Quvnoqlar quvonchi”, “Shokoladxo`rlar”, “G`aroyib pufak”, “Oydagi tomosha”, “Lofchilaraldoqchilar”, “G`aroyibkent hangomalari” singari she’riy va nasriy to`plamlari bolalar kitobxonligida shuhrat qozongan. Shoirning bolalar uchun yozgan she’rlarida bolalarning xarakter-xususiyati, orzu-o`ylari aks etgan. Masalan, “Bir so`z” she’rida Loladan astoydil ranjigan, unga birgina “shaddod” degan so`zi uchun “badbashara”, “xumbosh” kabi yomon so`zlarni eshitganidan arazlab, boshqa o`rtoq topishga ahd qilgan bola timsoli gavdalanadi. “Urishqoqlar”da esa o`g'il bolalar ko`proq o`ynaydigan “urush-urush”o`yini manzarasi chizib berilgan. Ayniqsa, qo`lda yog`och – avtomat bilan kalishlardan esa granata o`rnida foydalanishlari, bir-birlarini poylab turib, “o`q” uzishlari bolalar tilidan mardona hikoya qilinadi.

– Paq-puq, otdim, yiqil,— deb.
 Dushman tan olmas: – O`qing
 Qiyshiq ketdi, nuqul deb.
 Hamma bola o`yinda
 “Jang” qiziydi tobora....

Faqatgina Nodir bu jangga qo`shilmay, raketa yasash bilan ovora bo`ladi.

Chunki:

–Urishqoqlar ichida
 Yashab netaman,—der u.
 Olis sayyoralarga
 Uchib ketaman,—der u.

Buni eshitib, qolgan bolalar “o`zing bilan bizni ham ola ket”,- deb so`raydilar. Do`stlari rozi bo`ladi:

- Chiqinglar,- deb imlaydi.
- Biz kashf etgan sayyora
 Urush nima bilmaydi!

Ko`rinadiki, bolalar garchi “urush-urush” o`ynasalar ham aslida urush nimaligini bilmaydigan sayyorani kashf etmoqchi. Uning salbiy

oqibatlarini his qila olgan bolagina shunday fikrlaydi. Barcha bolalar tinchlikni sevishlari Nodirga ergashib ketmoqchi bo`lgan do`stlar niyatidan anglashiladi. Binobarin, H.Imonberdiyev yosh qahramoni tilidan, urushqoqlar o`yinini qoralaydi. Ularning orasida yashashni xohlamaydi. Uning “Vaqtning hajmi qancha?” she’ri falsafiy mazmunga ega. Vaqt haqida tasavvur, tushuncha yosh bolalarda hali to`liq shakllanmagan bo`ladi. Aniqrog`i, vaqt ular uchun mavhum tushuncha. Shoir bir soat misolida uni aniqlashtirishga, bolalarbop vositalar yordamida oydinlashtirishga erishgan.

Oylab ko`rsam, vaqt degan
Rezinali to`rxalta.
Neki tiqsang ichiga
Sig`averar, zo`r xalta

Bunga shoir keyingi misralarda aniqlik kiritadi: bir soatda nimalar qilish mumkinligini o`quvchiga ular xarakteridan kelib chiqqan holda tushuntiradi. Ya’ni, kitob, gazeta o`qish, samokat minish mumkinligi, do`sting bilan urushib, hatto yarashib olish, yoki, tort yeyayotgan ukangga “yordamlashish”, “qarashish”; yoki, uy ichini alg`ov-dalg`ov qilib, so`ng yig`ishtirish; yoki bo`lmasa, telefon orqali uy ishini ko`chirish kabilarni bor-yo`g`i bir soatda bajarish, ha, faqatgina harakat zo`r bo`lsagina, ana shunchaishni qilish mumkinligini ta’kidlaydi. H.Imonberdiyev kichik yoshdagи o`yinqaroq bola nazdida bir soat hech nima emasligini to`g`ri ilg`again uchun, uning qadrini yuqoridagi yumushlar bajarilishi bilan asoslaydi. Demak, bola qisqa muddatda ko`p narsaga erishish insonning o`ziga, xatti-harakatiga bog`liqligini shu tariqa tushunib yetadi.

H.Imonberdiyevning “Qish tongida” she’ri tabiiy manzara talqiniga bag`ishlangan:

Erta tursam hovuzda
Birov oyna solibdi.
Ko`m-ko`k, tiniq, zilol suv
Yeng ostida qolibdi.
Oynani solgan usta
Unutgan-ov hoynahoy.

Suv olishga ozgina
Qoldirmabdi ochiq joy.

Bola tasavvuri, tafakkuri aynan shunday fikrlashga moyil. Zotan, she'r jonli tasvir asosida yaratilgan. Shoirning "Qo`pollik" she'rida esa kichkintoy bolakaylarning uchqur xayoli, qahramonlik ko`rsatishga moyil tabiatи ochib beriladi. Ya'ni, qo`pollik qilib, akasidan "Bor, ko`zimga ko`rinma, hech keraging yo`q", - degan do`qini eshitgan ukaning ginalari, shu bilan birga, akasining o`z yoniga kelishi uchun hatto:

Balki sharga osilib,
Uchaman oyga.
Balki minib G`irko`kni
Jangga kiraman.
Yog`och qilichim sermab
Yovni qiraman.
Dushman bilan solishib
O`larman oxir.
Nima qila olardim
Akamsiz axir.
Kelib qabrim boshiga
Akam bosh egar,
Kechir meni, uka, deb
Balki yosh to`kar,-

Degan xayollarga boradi. Shu payt "Uka!" deb akasi boshiga kelganda, xayollari har yoqqa sochilib ketadi. Yosh qahramonning xufton dili charaqlab ochilib ketadi va quyidagi qarorga keladi:

Akam bo`lsa yonimda
Quvnab ketaman.
Shunday akam turganda
O`lib netaman?!

Chindan ham she'r voqeaband sujet asosiga qurilgan. Aka-uka munosabatlarida tabiiylik ustivor. O`zbek oilalarida uka har doim akaga suyanadi. Aka ham o`z navbatida ukani suyaydi, ko`nglini cho`ktirmaslikka harakat qiladgi, unga g`amxo`rlik qiladi. Bu hissiyot bolalikdan boshlanishi esa yuqoridagi she'rda yorqin aks etgan.

Umuman, H.Imonberdiyev she'rlarida fikr ustuvor, g`oya dolzARB, tasvir hayotiy. Uning qator ertak-dostonlarida esa bahodirlik, mardlik motivlari kuylanadi. Shoир ijodida istiqlol g`oyalari ko`zga tashlanadi

O`zbek bolalar she'riyatida yaratilayotgan alifbo-she'rlar mumtoz adabiyotimizdan davom etib kelayotgan an'analardan biridir. Shermuhammad Munisning "Savodi ta'lim" risolasi (1804) o`zbek tilida bitilgan ilk alifbo-manzuma sifatida e'tirof etiladi. XX asr o`zbek bolalar adabiyotidagi alifbo-she'rlar tadrijiga esa Sulton Jo`ra, Asqad Muxtor, Muxtor Xudoyqulov, T.Adashboyev, K.Turdiyeva, D.Rajab kabi shoirlar alohida hissa qo`shti. Alifbo-she'rlar turkumi nafaqat boshlang`ich sinf o`quvchilarining savod chiqargishlari uchun, balki harfiy san'at asosidagi badiiy ijodga daxldorligi bilan e'tiborni tortadi. Istiqlol yillarida esa alifbe she'rlarning yanada rang-barang namunalari yaratildi.

"Alifbo-sherlar odatda,— deb yozadi adabiyotshunoslar,— yangi alifbo qabul qilinishiga bevosita aloqadordir".[1,104]

Binobarin, o`zbek bolalar adabiyotining yetakchi namoyandasini Kavsar Turdiyeva ijodida alifbe-she'rlarning rang-barang namunasi mavjud. Shoira "Biz shunaqa bolamiz" she'rini "she'riy alifbo" deb ko`rsatadi.[3,156] Unda lotin alifbosidagi 29 harfning har biri bilan boshlanuvchi so`zlar alifbo tartibida she'riy vazn va qofiyaga solingan. Mazmunida esa **aqlii**, **besh** baho oladigan, **do`stlari** ko`p va **eli** mustahkam, **jazzi** botirlar, **Vatanga** qo`shqanot bo`lgan eng ibratlari avlod tilidan kuylanadi. Shoiraning "Sehrli harflar oroli" she'rida esa harflar o`zini shunday tanishtiradi:

Aa – Men "A"dirman, "A"dirman,

Ko`p narsaga qodirman,

"Qor", "Bol", so`zlarga qara:

Yasadim "Qora, bola"[3,157]

Bu alifbe she'rda har bir harfga bag`ishlangan misralar mustaqil kompozitsiyaga ega. Harflar alohida xususiyatlarini namoyon qilish bilan birga, o`zlari ishtirok etgan so`zdan yangi so`z va ma'no yasashlarini isbot

qiladilar. Birinchi harf o`zi ta'kidlayotganidek, juda ko`p so`zlarda ishtrok etishi qor-qora, bol-bola so`zlaridagi ma'no farqlashi orqali oydinlashgan. Bunday she'rlarda ma'no, fikr yetakchilik qiladi. Har to`rt qator she'r shu tariqa, mustaqil qofiya va mazmunga ega bo`la borgan. Ularni birlashtiruvchi yagona ritm esa yetti hijoli misralarning 4+3 tarzidagi turoqlanishidir. Yuqoridaq to`rtliklarning rang-barangligi – o`zini tavsiflayotgan harflarning so`zga qo`shilish o`rnidir. Shoira alfavitdagi harflarning joylashuvini yaxlit qit'aga o`xshatsa-da, go`yo harflarning har biri alohida oroldir. Ularning xususiyati, vazifasi, so`zdagi o`rni, unli-undoshligi xilma-xil. Buni shoir ayrim harflar misolida yaqqolroq oydinlashtiradi:

Ff – Men unliman, undoshman,

Fazo so`zida boshman.

Ba'zan “V”dek jaranglab,

Qolsam yurma alanglab.

Bu o`quvchiga harflarni tanishtiribgina qolmay, uning yuqori sinflarda beriladigan ilmiy ta'rifi haqida ham tushuncha berayotganidan dalolatdir. Shu jihatdan bunday she'rlarni harfiy san'atga asoslangan pedagogik she'rlar qatorida e'tirof etish mumkin. bu she'rdagi ayrim harflar ta'rifi esa Shermuhammad Munisning “Savodi ta'lim” manzumasiga yaqinligi bilan chunonchi, harflarning shaklini tabiatdagi narsalarga qiyoslab tushuntirish kuzatiladi. Masalan, shoir arab alifbosidagi harflarni o`quvchiga shunday tushuntirgan:

"Zo" uch nuqtau lek sarkash,

Qilsa bo`lur oni *qushga o`xshash*.

"Nun" olti nuqatdur, ey qarindosh,

Ikki oyoq, ikki tan, ikki bosh.

Uch nuqtadur ikki lab arosi,

Ul nav'ki *umqining binosi*.[2,103]

K.Turdiyeva she'rida esa “Ch” harfi o`zini shunday tanishtiradi:

Chaqqondirman, chiroyli,
 Shaklim *narvon* va *yoyli*.
 Men qo`shilsam oynakka
 Ko`zing tushar choynakka.

Bu jihat shoiraning alohida turkum she'rlarida ham uchraydi. Jumladan, “D” o`xshaydi ilhomga” she’rida quyidagi o`xshatishlarga duch kelishimiz mumkin:

“O” dumaloq go`yo shar,
 “N” o`xshaydi narvonga,
 “L”ilingan javonga,
 “S” o`xshaydi oqqushga,
 “V” qanot yozgan qushga,
 “A” o`xshab ketar tomga,
 “D” o`xshaydi ilhomga
 Yurar qaddin qilib dol.
 Go`yo yuz yasharli chol.

K.Turdiyeva shu tarzda alfavitdagi har bir harfga to`xtalib harflardan goh topishmoq, goh o`yinchoq, ba’zan esa yosh bolalarga o`gitlar berish maqsadida foydalanadi. Natijada, harflar obraz darajasiga ko`tarila oladi.

Shoira she'rlaridagi lirik qahramon yosh bo`lishiga qaramay, talay kasblar bilimdoni, hatto shu kasblarning vazifalaridan ham xabardor. U endigina maktab borib, harf taniy boshlaganiga qaramay, kelajakda kim bo`lish haqida bosh qotirmoqda. Muhimi bu ham emas, u ko`pchilik yoshlari hali eshitmagan kasb-hunarlar haqida tasavvurga egaligini oydinlashtirmoqda. Ha, muallifning “Kasblar she’rga aylandi, alifbega joylandi” she’rida alfavit tartibidagi harflar saf tortib, o`zi bilan boshlanuvchi kasblar haqida so`z yuritadi. Garchi har bir band (10-14 misra)da biror kasb-hunar haqida so`z borib, mustaqil sujetga ega bo`lsa-da ularning barchasi “yo bo`lsammi” so`zidan boshlangani, mantiqiy bog`lqligiga ko`ra yaxlit she’rdir. Alifbe she’r orqali o`quvchi o`ttizdan

ortiq kasb-hunar haqida tasavvurga ega bo`ladi. Rost she`rda kichkintoy bolalarning tasavvuriga hali sig`maydigan kasblar haqida ham so`z boradi. Masalan, elchi, g`avvos, lug`atshunos kabi. Ammo shoira o`zining zamondosh o`quvchilarini yangi voqelik, chet tillarini 1-sinfdan o`rgatilishi va xalqimizning iqtidorli farzandlari tafakkuriga mos fikr yuritishni ko`zlaydi. Bunda shoira tajnisli so`zlardan ham foydalangan:

Y (yozuvchi)

Yo bo`lsammi **yozuvchi**,
 Hikoyalari **yozuvchi**.
 Roman, qissam yozilsa,
 Kitoblarim bosilsa.
 Taniqli bo`lsam behad
 Darrov so`rashsa dastxat.
 Intervyular olishsa,
 Tinglab qoyil qolishsa.
 Menga bergenlar savol
 Javobimga qolsa lol.

Bu istiqlol davri alifbo-she`rlarining yorqin namunasi ekanligi bilan ham e'tiborli. Unda davrning nafasi ufurib turishidan tashqari, mazmun mohiyatida XXI asrning intellektual salohiyati aks etgan. Masalan, jurnalist bo`lishni orzu qilgan yosh lirik qahramon xabar yozib, elektron pochta orqali tashlashni reja qiladi, uchuvchilik haqida oy`laganda Marokash va Anqaradan bemalol Vataniga uchib kelishni orzu qiladi. Shu kabi yuksak orzular qanotiga shaylangan lirik qahramon cho`ponlik, nonvoylik, kulolchilik, zargarlik kabi ota-bobolarining kasbini ham unutmay, ular to`g`risida mulohaza yuritadi. Natijada, bunday alifbe she`rlar faqat jazzi o`quvchilarini emas, balki o`smirlarning kasb tanlashga bo`lgan qiziqishlarini uyg`ota olishi bilan ham ahamiyat kasb etadi.

Umuman, alifbe she`rlar asosida yangi she`riy shakllarning yaratilishi o`zbek bolalar she`riyatining janriy jihatdan boyib borayotganligidan

dalolatdir. K.Turdiyevaning “Alifbeda nasihat”, “Topishmoqli alifbe” she’rlari shu jihatdan xarakterli. Bunda endi shoira har bir harf bilan boshlanuvchi o`gitlarlarni alifbo ipiga marjondek tizadi:

- “**A**” aql,adolat, azal, asli hammadan Afzal,
- “**B**” botir bo`lsang bil shafqat, bemehr bo`lma faqat.
- “**D**” dono so`zdan yarar dil, donolarni do`sting bil,
- “**E**” eshit, esingda tutgin, erinishni unutgin.
- “**F**” fahm, farosat albat, eng foydali fazilat.
- “**G**” go`zaldir gul-u giyoh, gullarni toptash gunoh.
- “**H**” hadis, hikoya, hikmat, uyg`otar mehr, himmat.
- “**I**” intil ilm izlashga, shu maqsadni ko`zlashga.
- “**J**” jahlingni jilovlab ol, janjal naf bermas biror.
- “**K**” kamtarga kamol chopar. Kekkaygan zavol topar...

Alifbe-o`gitda harflarga mos so`z va ulardan yaxshilik xislatini topish, she’riy shakl, qofiya, vaznga solish ijodkor mahoratidan dalolat, albatta. Ayni paytda bunday o`gitlarni Alifbe darsliklariga kiritish, tovush va harflarni o`tishda rang-baranglikka erishilishiga olib keladi. Bu alifbe she’rning pandnoma ko`rinishi ham mumtoz adabiyotdagi an’analarning qayta tiklanishi sifatida e’tirofga loyiq.

Alfavitdagagi harflar ketma-ketligi asosida yaratilgan **topishmoqli alifbe** ham K.Turdiyeva ijodiga xos usul. Shoira topishmoqlarni shunday ketma-ketlikda joylashtiradiki, ularning javobi alfavitdagagi harflar bilan boshlanadi:

- A**– Asal yig`ar, nishi bor. (Asalari)
- B**– Sariq meva dorivor.(Behi)
- D**– Marjonlardek terilgan. (Do`lana)
- E** – Aqlliga berilgan. (Es)
- F** – Juda ham ulkan jonzot. (Fil)
- G** – U bilan go`zal hayot. (Gul)
- H** – Qovunga kichik ini. (Handalak)

I– Qushlar quradi uni. (In)

Shu tariqa, shoira topishmoq aytish bahonasida alifbeni yod bo`lishi, uni esdan chiqarmaslikni maqsad qilib qo`yadi. Alifbe she`rlarning bunday ko`rinishi savod o`rgatish jarayonida qo`l keladi. Kichkintoylarni topqirlikka, zukkolikka o`rgatishda, shuningdek, dam olish daqiqalarida bu kabi topishmoq she`rlardan foydalanish mumkin.

Ko`rinadiki, K.Turdiyeva bu janrning xilma-xil usullarini yaratish orqali o`quvchini so`z oyini, fonetik hodisalar bilan ham tanishtirishni ko`zlaydi. “Qofiyali topishmoqlar” shu jihat bilan alohida hodisa”

“T”dan boshlansa – musiqiy asbob,

“Q”dan boshlansa – yog`in behisob. (*tor, qor*)

“X”dan boshlansamda o`sman oddiy,

“B”dan boshlansam shirinman, totli. (*xol, bol*)

Bunday she`rlar tabiiyki, o`quvchini yuqori sinflarda o`rganiladigan bir tovush bilan farqlanadigan paronim so`zlar bilan tanishtirib borishga zamin yaratadi. Ayni paytda so`zning oxiri bir xil alliteratsion harflar bilan tugaydigan qofiya haqida tushuncha paydo qila boradi. Har bir paronim so`zga bag`ishlangan misralar o`zaro mustaqil band hisoblanib, qofiyalanish tizimiga egaligi uning she`riy shakllardagi to`rtlik ko`rinishiga misol bo`la oladi.

Harflar orqali turli obrazli voqelik yaratish K.Turdiyeva she`riyatida ko`proq uchraydi. Shoiraning “Harflar she`r yozishgani haqida” sarlavhali **alifbe ertakda** harflar endi obrazlarga kiradi. Ular asar tarkibida mustaqil personaj sifatida harakat qilib, ma’lum voqelikning obrazli ifodasiga ko`ra kompozitsion butunlikni tashkil qilgan. Hikoya qilinishicha barcha harflar bir joyda to`da bo`lib, she`r yoki hikoya yozish g`oyasini o`ylaydilar. Ammo nima haqda yozish ular o`rtasidagi bahsga sabab bo`ladi. “T” harfi “tog” mavzusini ma’qullasa, “Q” qisqichbaqa, qarqunoq, qarg`a haqida yozamiz deb turib oladi. “O” harfi esa oqlikni, B-bo`g`irsoq, bo`rini maqtaydi; “S”, “M” harflari ham o`z so`zida turib oladi. Xullas, A-ahilllikda

gap ko`p deya hamma harflarni chaqirib, tizilishini shunda biror nima yozish mumkinligini aytadi. Barcha harflar alfavitdagi o`z o`rinlarini egallagach, “Alifbe”ga joylashgach, murodlariga yetadi, she`r yoza boshlaydilar.

K.Turdiyeva shu kabi ko`plab she`rlarida harflarni mustaqil harakatga keltiradi. Ulardan kichkintoylar xarakteriga xos xususiyatlarni ochib berishda foydalanadi. Natijada, harflar goh adashib ketadi, gohida almashib qoladi. Shoiraning “Manman “B”, “Harflar adashdi”, “Harflar o`yini”, “Bitta harf qochsachi”, “Harflar ketib qolsa”, “M”, “A” kelsa yonma-yon”, “A” harfi qilsa o`yin”, “Harflar ustaxonasi”, “Bo`ling harfga hurmatda” kabi she`rlari ham shu tariqa ma`rifiy-badiiy ahamiyatga ega. Zero, alifbo-she`rlar endilikda harfiy san`atga asoslangan yangi she`riy shakllarga keng yo`l ochdi desak yanglishmaymiz.

Ta’lim jarayonidagi barcha fanlarning asosiy maqsadi va mohiyati o`quvchilarda – o`sib kelayotgan yosh avlodda muayyan sohalarga oid bilimlarning asoslarini shakllantirish, shularning negizida ularning boy ma’naviy olamini yaratishdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirishhda badiiy adabiyot, boshlang`ich sinflarda o`qish kitoblariga teng keladigan soha yo`q, deb ayta olamiz. Negaki, ulardagi namunalar alohida shaxsga ham, butun jamiyatga ham kuchli darajada ta’sir ko`rsata olish imkoniga ega. Jumladan, boshlang`ich sinf o`qish kitoblari o`quvchilarning dunyoqarashi shakllanishida, ulug` insoniy qadriyatlarni bolalik xotiralaridayoq muhrlanishiga beqiyos xizmat qiladi.

Bugun har bir vatandoshimizning Vatan menga nima berdi, deb emas, men o‘zim xalqim, jonajon vatanim uchun, uning kelajagi, baxtli istiqboli uchun nima qilmoqdaman, mustaqillik ishiga qanday hissa qo‘shtemoqdaman, degan tuyg‘u bilan yashashiga erishsak hech birimizning, hech qanday armonimiz qolmas edi.

Ezgu niyatimizning ro‘yobga chiqishi uchun taraqqiy topgan ma’rifatli dunyo bilan birga yashashimiz, hamkorlikni kuchaytirishimiz, hamdo‘stlik rishtalarini mustahkamlashimizni hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Mamlakatimizdagi tinchlik, barqarorlik bugungi kundagi yutuqlarimizning asosi bo‘lmoqda. Bu osoyishta hayotimizni ko‘z qorachig‘idek asrashga, himoya qilmoqqa qodir bo‘lmog‘imiz kerak. Shunday yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazmog‘imiz zarur.

Ozodligimiz bizga ko‘p narsani o‘rgatdi. Bu yorug‘ olamda avvalambor Yaratganga, keyin o‘zingga, qolaversa, ota-bobolarimizdan qolgan boy merosga, milliy qadriyatlarimizga ishonmoq lozimligini anglab yetdik. Millatimiz o‘zining mard, erkparvar, insonparvar tabiatini bilangina asrlar chig‘irig‘idan butun chiqib ketmoqda.

I bob bo`yicha xulosalar

O‘zbek bolalar she’riyati badiiy tasvir vositalariga boy. Bolalar shoirlari tashbeh, tashxis, talmeh, tavze, mubolag`a, sifatlash kabi san’atlardan o‘rinli va samarali foydalanib, keladilar. Bunday xulosani bugungi o‘zbek bolalar she’tiyati, jumladan, boshlang`ich sinf o`qish kitoblaridagi berilayotgan she’rlar haqida ham aytish mumkin. “Poeziya ta’kidlaydi,—T. Boboyev,— murakkab va g`oyaga boy san’at, u inson qalbining nozik his-tuyg`ularini hissiyotlar va harakatlarni ehtiroslar kurashi va rivojini emotsional tarzda ifodalaydi. Lirikaning qahramoni inson ta’kidlaydi olim,— ko`pincha shoirning o`zi bo`lib lirk qahramon sifatida namoyon bo`ladi. Voqelikni lirk qahramon kechinmalari orqali aks ettirilishi lirikaning bosh xususiyatidir.” Bundan bolalar she’rlari ham mustasno emas. Kichkintoy qahramonlar tilidan aytilgan so`z va ifodalar, hayajon va ehtiroslar aslida shoir kechinmalaridir. Umumadabiyotda bo`lganidek, bolalarga mo`ljallangan she’rlarida ham tasvir imkoniyatlari nihoyatda keng. Poetik fikr, mulohaza asosiy o`rinni egallaydi. Shu bilan birga bolalar she’riyatining o`z tamoyillari mavjud. Bunda avvalo, pedagogik psixologik jihatdan bolalarning yosh xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

Istiqlol davri o‘zbek bolalar she’riyati yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ijodiy tafakkurini o`stirish, shu orqali yurtimizning kelajagini ravnaq toptirishga keng yo`l ochildi. Binobarin, istiqlol davri

o'zbek bolalar she'riyatining bunday namunalari mustaqillik yillarida chop etilgan yangi avlod darsliklaridan ham keng o`rin ola boshladi. Jumladan, boshlang`ich sinf o`qish kitoblarida yuqorida she'rlari ko`rib o'tilgan shoirlarning she'rlari keng o`rin olayotir. Amaldagi O`qish kitoblarining bugungi yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalashdagi ulkan xizmati ham ko`proq istiqlol davri she'riyatining salmog`iga daxldor.

II BOB

O`QISH DARSLIKLARINING YANGI AVLODIDA ISTIQLOL DAVRI BOLALAR SHE`RIYATI IFODASI

II.1. Darsliklardagi istiqlol davri bolalar she`riyatining mavzuviy mundarijasi

Mamlakatimizda ta’lim tizimi keskin yangilandi, umumta’lim maktablari uchun yangi avlod darsliklarini yaratish jadal davom etmoqda. Mustaqillik davrida boshlang’ich ta’limning hamma sinflari uchun dastur va darsliklar yaratilib, har yili to’ldirilib, qayta nashr etib borilayotgani tahsinga sazovor. Hozirgi darsliklar tuzilish va mazmuniga ko’ra mavjud ijtimoiy hayotdagi o’zgarishlarni o’ziga singdirib olganligi ham e’tirofga loyiq hodisa. Jumladan, “O’qish kitobi” darsliklari ham to’ldirilgan yangi nashrlarida tobora dolzarb mavzularni, bo`limlarni qamrab olayotir. Bu jihat 1-sinf o`qish kitobida ham alohida ko`zga tashlanadi.

Mustaqillikdan so’ng mamlakatimizda ro’y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar, o’zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, milliy qadriyatlarimizning tiklanishi mazkur darslikdan ham keng o`rin olayotir. Endilikda shu narsa tobora yaqqolroq anglashilayotirki, boshlang`ich sinf darsliklari kelajagimiz ravnaqiga ma’naviy ko’makdoshdir. 1-sinf o`qish kitobidagi yetakchi bo`limlar va mavzularda ham shu ma’noda yangi zamon, yangicha hayot shodliklari, xalqimizning haqiqiy quvonchi, millatimiz o’tmishi va bugunidan faxrlanish tuyg’usi o’z ifodasini topdi. Ajdodlarimizning qalb qo’ri-yu donishmandligi orqali yaratilgan ijod durdonalaridan bahramand bo’lib, o’tmish madaniyatimizni anglab yetish, ota-bobolarimizga munosib voris

bo'lib yashashga intilishdek baxtga muyassar bo'linayotir. O'qish kitoblarida o'zgarishlar kiritishda o'qituvchi va o'quvchilarning imkoniyatlari ham hisobga olinmoqda. Jumladan, 1-sinf o'qish kitobidagi "O'zbekiston—mening Vatanim", "Biz—buyuklar avlodi", "odob—insonga husn" bo`limlari o'z ahamiyati va salmog`iga ega. Avvalo, bo`limda chinakam madaniyatimiz, tariximizdagi buyuk shaxslar – Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek, Bobur Mirzo kabi mutafakkirlar to`g`risida she'rlar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Vatan, inson qadr-qimmati va xotira, ona-yurt haqidagi tushunchalar mustaqillik g`oyasiga hamohang. Masalan, darslikning ilk sabog`i Po`lat Mo`minning "Vatan-bu..." she'ri bilan boshlanadi. Shoiring mazkur she'rida Vatanning nima ekanligi soda va eng muhim g`oya orqali ifodalanadi. Shoир Vatanni yurakka o`xshatadi. Yurakka Vatanning kerakligini, ularning har ikkalasi bir-biriga kerakligi ta'kidlanadi. Chindan ham jajji 1-sinf o'quvchisi hali Vatanning va yurakning o`xshatilish sababini anglab yetmaydi. Ammo yurakning inson a'zosi uchun eng muhimligini tushunadi. Vatan ham har bir kishiga yurakdek kerakligi shu kabi she'rlar orqali anglab boriladi. P.Mo`min she'rning xulosaviy qismini yanada lo`nda xulosalaydi:

Aslida Vatan bu—
Tug`ilgan joyim,
Birinchi qadamim
Yetgan qo`rg`onim.¹³

Istiqlolgacha bo`lgan davr she'riyatida Vatanning tug`ilgan joy, birinchi qadami yetgan qo`rg`on bilan belgilanishi ko`zga tashlanmagan. Aksincha bunday fikr yurituvchilar millatchi tamg`asi ostida qatag`on qilingan. Nafaqat bolalar, balki kattalarning ham umrida bir bor ko`rmagan poytaxt shaharni,

¹³ T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. –Toshkent, "Sharq", 2015.–B.15

markazni Vatan deb aytishardi. Shu sababli, Vatan tuyg`usini teran anglab yetish dushvor bo`lgan. Endilikda 1-sinf o`quvchisi o`zi tug`ilgan uyi, tarbiya olgan bog`chasi, qadam qo`ygan maktabini o`z Vatani deb biladi, ulg`aygani sari bu tushuncha O`zbekiston bilan baravar kengayib, yaxlit tasavvur paydo bo`la boradi. o`quvchi ham Vatan deganda nimani tushunasiz,— degan savolga aniq javob bera oladi.

Darslikdagi “Yurt qalqonlari” she’ri ham bolalar shoiri Dilshod Rajab qalamiga mansub. Shoirning istiqlol davri ijodkori ekanligi yuqoridagi faslda ko`rilgan edi. Binobarin uning she’ri ham shu davr ruhiyati, mavzu va g`oyasiga ega:

O`zbekiston–hur Vatan,
Baxtimiz ayvonidir.
Armiyamiz mustahkam,
Ona yurt qalqonidir.(8-bet)

Bu she’rda esa O`zbekistonning hur va ozod-istiqlolga erishgani, shu munosabat bilan uning o`z armiyasi, askarlari borligi madh etilgan jajji o`quvchilar harbiy xizmat mardlarning ishi ekanligini, jasur askar akalarining ona yurt ucun qalqon-qo`riqchiliginи tushunib boradilar. Mustaqil yurtning kelajagi, tinchligida shu kasb egalarining xizmati kattaligi ayonlashadi. Bu esa o`z navbatida kichkintoy yigitlarning ko`ksida g`urur paydo qilib, harbiy bo`lishlarida ishtiyoq uyg`otadi.

1-sinf o`qish kitobidagi “Ota rozi-Vatan rozi”(Eson Rahimov) she’rida ham vatanparvarlik ulug`langan bo`lib, istiqlol davri bolalar she’riyatining namunasi bo`la oladi. Bu mavzu 2-sinf o`qish kitobida Muqim Qodirning “Biz Vatanning ertasi” deb nomlangan she’ri ham qay jihatdandir shunday g`oyani singdirishga xizmat qiladi. Zero, she’rdagi:

Temurning avlodimiz,
To`maris surriyotimiz,

Tinchlikdir murodimiz,
 Biz –Vatanning ertasi.
 El-yurt sha’ni–orimiz,
 Pok saqlash shiorimiz,
 Yashasin diyorimiz,
 Biz –Vatanning ertasi,¹⁴

satrлari fikrimizga asos bo’la oladi. “Poeziya ta’kidlaydi,—T. Boboyev,— murakkab va g`oyaga boy san`at, u inson qalbining nozik histuyg`ularini hissiyotlar va harakatlarni ehtiroslar kurashi va rivojini emotсional tarzda ifodalaydi. Lirikaning qahramoni inson ta’kidlaydi olim,— ko`pincha shoirning o`zi bo`lib lirk qahramon sifatida namoyon bo`ladi. Voqelikni lrik qahramon kechinmalari orqali aks ettirilishi lirikaning bosh xususiyatidir.” Bundan bolalar she’rlari ham mustasno emas. Kichkintoy qahramonlar tilidan aytilgan so`z va ifodalar, hayajon va ehtiroslar aslida shoir kechinmalaridir. Binobarin, yurt, Vatanmiz tarixi haqida bitilgan yuqoridagi kabi she’rlar ham ana shu jazzi yuraklar nidosi kabi yangrashi bejiz emas. Tarixiy shaxslar mavzusida bitilgan she’rlar boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun serqirra ma’no kasb etibgina qolmay, tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Chunki tarixning muayyan davrlarida xalq taqdirida beqiyos o`rin tutgan buyuk zotlar ham ezgulik ramziga, ibratli fazilatlar timsoliga aylanib qoladi. Masalan, Najmiddin Kubro, sulton Jaloliddin manguberdi, sohibqiron Amir Temur, zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimiz mardlik, botirlik, davlatniadolat bilan boshqarish borasida; Ibn Sino, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimiz donishmandlik, ilm-ma’rifat, xalqning qalbini, inson falsafasini so`z san’ati vositasida ifoda etish borasida barchamiz uchun komillik timsoliga aylanib qolgan. Bu buyuk zotlarning har biri haqida, ularning betakror fazilathlari to`g`risida yurtboshimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat—yengilmas kuch” kitobida so`z yuritilgan. Zotan, boshlang`ich

¹⁴ T.G`afforova, Sh.Nurullayeva, Z.Mirzahakimova. O`qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent, “Sharq”, 2012. –B.8.

sinf o`qish kitoblarida buyuk allomalarining bolaligi to`g`risida bierilgan ma'lumotlar, adabiy matnlar bugungi yosh avlod qalbini ham ezgulikka yo`g`rishga xizmat qiladi. Negaki, har bir inson yoshligida pokiza orzumidlar bilan yashaydi., xalqiga, Vataniga foydasi tegadigan kishi bo`lib yetishishini oo`ylaydi. Bu jarayon buyuk mutafakkirlar asarlarida hayotiy misollar, afsona va rivoyatlar asosida ko`rsatib berilgani shundan. Shu ma'noda, ezgulik, komillik sari intilish odamzodning azaliy orzusi ekanligi ayon bo`ladi. Milliy istiqlol xalqqa ana shunday an'analarni davom ettirish yo`lini ochdi. Va bu g`oyani o`quvchilarga singdirishda yuqorida zikr etilgan matn va hikoyalar vosita bo`lib xizmat qilishiga shubha yo`q.

Yoki, M.A'zamning "Vatan" she'rida ham "Vatan-bizning uyimiz, Vatan-bizning ko`chamiz, soylardagi suv, tog`, olma-anorli bog`, bug`doy, arpa, dala, Vatan – mакtab-onaimiz "singari tashbehlari bilan tushunchaning kichkintoy o`quvchilar tasavvuriga muvofiq gavdalantirilishi kuzatiladi.

3-sinf o`qish kitobida Miraziz A'zamning "O`zbekiston posbonlari" she'ri ko`zga tashlanadi. Bu she'r o`quvchilar tilidan aytulgani, harbiy bilimlarni qunt bilan o`rganishga ahd qilgan yosh avlod timsolining yorqin ko`zgusi sufatida ahamiyatga molik. She'rda harbiyga oid so`z va tushunchalar, masalan, avtomat, chegara, zirhli moshin, tank, reaktiv uchoq, desantchi kabilar tilga olingan bo`lib, Ona-Vatan tinchligini orzu qilgan o`quvchilarga milliy armiya mohiyati tushuntirilishi ko`zda tutilgan.

She'rda bugungi kun ruhi yaqqol seziladi. Chunki, harbiy bilim olishga ahd qilgan yigitlarga juda katta imtiyozlar, imkoniyatlar mavjud. Shu sababli she'r qahramonlari ham bugunning bolalari:

Bir sinfdan uch bola

Harbiylikka ahd qildik.
Turli harbiy fanlarni
O`rganmoqqa shahd qildik.

Men yangi quollar-u
Avtomatni sinayman.
Qo`limda durbin bilan
Chegarani saqlayman.¹⁵

M.A'zam she'rning birinchi misrasidayoq bu sohaning alohida mavqega egaligini, bir sinfda uch bolaning harbiy bo`lishga ahd qilgani bilan dalillaydi. Bunda turgli harbiy fanlarni albatta o`qish joizligiga ham ishora qilmoqda. Bo`lajak harbiylar esa kelajakda yangi quollar-u avtomatlarni sinash, qo`liga durbin bilan chegarani saqlash vazifasi ekanligini ham to`g`ri anglagan. Ularni orasidan Elbek ismli bola esa zirhli moshin, tanklarni haydab yurvmoqchi ekani, Botir reaktiv samolyotdan sakrab, kelajakda desantgchi sifatida yurtning tog`li hududlarida Vatan himoyasida turishi ma'lum bo`ladi.

Shu o`rinda umuman, harbiy ta'lim haqida fikr bildirib o`tish joiz, deb o`ylaymiz. Sobiq sho`ro davrida mustaqil davlatlarning aksariyatida harbiy bilim olish emas, xizmat qilish degan tushuncha bo`lgan. Barcha 18 yoshga to`lgan yigitlar sobiq Sho`ro tarkibidagi hududlarda ikki yillik majburiy harbiy xizmatni o`tab kelishgan va aksariyati, oddiy fuqarolar bajarishi mumkin bo`lgan o`rmonda daraxt kechish, qurilish binolarida ishlash bilan mashg`ul bo`lgan. Faqat, mehnat qilish intizomigina harbiy bo`lgan. Harbiy ta'lim bo`yicha esa O`zbekistonda 5-6 ta respublika uchun yagona Turkiston harbiy okrugi mavjud bo`lib, u yerda ham milliy

¹⁵ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O`qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. Toshkent, "O`zbekiston", 2016. –B.103.

xalq farzandlari juda kam sonni tashkil qilgan. Ya’ni, o’zbek farzandlari harbiy ta’lim tizimida juda kam miqdorni tashkil qilgan. Endilikda esa harbiy ta’lim—qurolli kuchlar va qo`shin turlari uchun kadrlasr tayyorlash keng yo`lga qo`yilgan. O`zbekiston Respublikasida harbiy ta’lim Qurolli Kuchlar qo`shin turlari uchun kadrlar tayyorlash, aholiga boshlang`ich ta’lim berish tizimi jadal rivojlanmoqda. Harbiy ta’lim 3 bosqich (boshlang`ich, oliy va akademik)da amalga oshiriladi. Boshlang`ich harbiy ta’lim umumta’lim mакtablarida, o`rta maxsus va o`rta kasb-hunar ta’limi muassasalarida, harbiy litseylarda, O`zbekiston Respublikasi mudafaasiga ko`maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining o`quv muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy harbiy ta’lim Mudofaa vazirligi tizimidagi Toshkent oliy umumqo`shin qo`mondonlik bilim yurti, Samarqand oliy harbiy avtomobil bilim yurti, Chirchiq oliy tank qo`mondon-muhandislik bilim yurti, Jizzax aviatsiya oliy harbiy bilim yurti hamda Toshkent axborot texnologiyalar universitetining maxsus fakultetida amalga oshirilsa, ichki ishlar vazirligining Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurti hamda Yong`indan saqlash oliy texnik maktabining, Yong`in xavfsizligi oliy texnik maktabida, Oliy Akademik ta’lim O`zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi hamda Ichki ishlar akademiyasida amalga oshiriladi. O`quv dasturini to`liq o`zlashtirgan va Davlat imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan kursantlarga “leytenant” ofitserlik unvoni hamda sohasiga muvofiq oliy ma’lumotini tasdiqlovchi davlat namunasidagi diplom va ko`krak nishoni topshiriladi.¹⁶

¹⁶ Qarang: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild, Toshkent, “O`zME”, 2005, 314-b.

Ko`rinadiki, bolalar shoiri M.A'zam ana shu bilim yurtlariga kirish uchun yoshlarda ishtiyoq kattaligini yuqoridagi she'rda to`la namoyon etgan. Bunda shoir qo`llagan so`zlar ham harbiy ta'limga xosligi ayonlashadi. She'rning xulosaviy qismidagi bolalar tilidan aytilgan mulohaza esa g`oyat dolzarb:

Lekin bosqin ko`zlamas
Biz uch do`stning hech biri.
O`ylaganimiz faqat
Ona-Vatan tinchligi.¹⁷

Demak, endigi yagona maqsad ona-Vatan tinchligi ekanligi, shu orqali o`quvchilarga vatanparvarlik g`oyasi singdirilishi ayni muddao hisoblanadi.

Shunga hamohang, 3-sinf o`qish kitobining “Vatan himoyachilar” bo`limida H.Rahmatning “Botir askarcha” she'ri ham berilgan. Bunda ota-o`g`il suhbati va bola istagi mavzu mohiyatni oydinlashtiradi. Kichkintoy o`g`il dadasiga hayajon bilan shunday deydi:

— Dadajon, askar akam
Qadam tashlar gurs,gurs,gurs.
Vatanimga,xalqimga
Sodiqman, deb bergen so`z.
— Shundaymi?
— Shunday!¹⁸

Uka akasiga shunday havas qilibgina qolmay, o`zi ham Vatan ishiga tayyor bo`lib turishi kerakligini biladi. “Vatanimni, xalqimni askar akamga o`xshab ko`z qoramdek saqlayman”,— deydi. Asl maqsadi esa, el ishonchini oqlash. Ota ham o`z navbatida o`g`lining kelajagiga ishonadi, uning ulg`ayib, askar botir bo`lishiga umid qiladi. Ko`rinadiki,

¹⁷ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O`qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. Toshkent, “O`zbekiston”, 2016.—B.103.

¹⁸ O'sha joy, 108-b.

Habib Rahmat ham O`zbekiston askarlarining safi tobora kengayib borayotganiga ishora qilayotir. Agar Vatan chegaralari mustahkam bo`lmas ekan, askarlar buyuk tog` singari suyanch bo`lolmas ekan, yurtimizda farovonlik, osuda hayot bo`lmaydi. Shu sababli, har bir xalqning mard o`g`loni o`z Vatanini himoya qilishga shay turishi, bu mas'uliyat bolalikdanoq qulog`ida jaranglab turishi shart. Qizlar esa o`z Vatanlarini qadrlash bilan birga, askar o`g`lonlarga alohida ehtirom ko`rsatishi joiz. Shundagina, vatanparvarlik tuyg`ulari qalbimiz to`rida ekanligi ayonlashadi.

4-sinf o`qish kitobining mazmun mundarijasi, asosiy bo`limlari, mavzulari ana shu talablarga javob bera oladi. Binobarin, o`qish kitobi XIV mustaqil bo`limdan iborat bo`lib, har biri o`z maqsad vazifasiga ega. Darslikning dastlabki bo`limi “**Istiqlolim–istiqbolim**” (I.) deb nomlanadi. Bu bo`limda o`quvchilar bolalar yozuvchilarining istiqlolga bag`ishlangan asarlari, ularda xalqimiz hayoti va Vatanimiz taraqqiyotidagi jahonshumul ahamiyati aks ettirilgan asarlar bilan tanishadilar. S.Barnoyevning “Mangulikka tatigulik kun” maqolasi, A.Oripovning “Iqboli buyuksan”, G’.Shomurodovning “Ozod vatan madhi” she’rlarida bu jihatlar yorqin aks etgan.

4-sinf o`qish kitobining mazmun mundarijasi, asosiy bo`limlari, mavzulari ko`p jihatdan quyi sinflarda o`tilganlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Milliy istiqlol g`oyasi aks etgan namunalar ham juda ko`p. Darslikning yetakchi bo`limlarini ko`zdan kechirish orqali bunga guvoh bo`lish mumkin. Aytaylik, “**O`zbekiston–Vatanim manim**” (II.) bo`limida O`zbekiston va uning viloyatlari, shahar va qishloqlarida yashovchi har bir kishi uchun Vatanning muqaddasligi, yurt obodligi, farovonligi, xalqning kuch-qudrati, saxovatpeshaligi tufayli yuzaga kelgan to`kin-sochinlik to`g`risida tushuncha beriladi, Vatanning yagonaligi va unga bo`lgan muhabbat tuyg`usini uyg`otiladi. Bunda M.A’zamning

“Mardlik va aql yorug`ligi”, M.Omonning “Gulg`unchalarmiz” she’rlari; Masalan, M. A’zamning “Mardlik va aql yorug`ligi” she’ri o‘qish, ilm cho‘qqilarini egallash uchun va insonning o‘z orzusi, ezgu niyatiga erishishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan zamonamizda yashashga qaramay, dangasalik, yalqovlik qilgan, hayotga yengil–yelpi yo‘l axtargan va adashgan bolalar kulgi ostiga olinadi. Shoir bolalarni hamisha mard bo`lishga chorlaydi.¹⁹

Mardlik buzilib ketgay
 Miltiq chiqqan zamonda.
 Yuzta mardni bir nomard
 Otib tashlar maydonda.
 Miltiqni mardlik bilan
 O‘rganib bo`lmas lekin.
 Kitob varaqlash kerak
 Qunt bilan sekin-sekin.
 Aqlni faqat ilm
 Yorug qilar, ukajon.
 Yorug aql Vatanni
 Olg`a boshlar begumon.
 O`g`ilga mardlik kerak,
 Ilm ham kerak tayin.
 Ilmsiz mardning esa
 Holiga yig'lar maymun.

Ushbu she`rni ifodali o`qib chiqqach, o`quvchilarga “Shoir mardlik haqida nima deydi? Qanday kishilarni mard desa bo'ladi?” kabi savollarni berib, ularni mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini bayon etishga undash mumkin. She’r milliy istiqlol g`oyasining asosi hisoblanuvchi tinchlikparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya g`oyasi tashkil etishi oydinlashadi.

O`qish darslari uchun tanlangan mavzular o`quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo`yicha ham bilim va tarbiya berishni ko`zda tutadi. Bular ichida **ISTIQLOL, VATAN**, ma’naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi.

¹⁹ S.Matchonov, A.SHojalilov, X.G`ulomova, SH.Sariev, Z.Dolimov. O`qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: YAngiyo`l poligraf servise”, 2013. – B.9.

Ulardan ko`zlangan maqsad o`zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog`liq tuyg`ularini uyg`otishdir. Tabiatga oid mavzular yordamida o`quvchilar tabiatdagi o`zgarishlar, yil fasllarining almashinushi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Ular o`quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to`g`ri munosabatda bo`lishga o`rgatadi.

II.2. O`qish kitoblaridagi mustaqillik davri she'riyatining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari

“Mazmunning shartli tugalligi bilan farqlanuvchi she'r misralari yig'indisi bo'lib, u poetik fikr, ritmi jihatidan tugal bo'lgan va qofiya tartibi bilan birlashgan she'r bo'laklaridan tashkil topadi”, - deb berilgan ta'rif bandga daxldordir. O`zbek she'riyatida bandning turli ko`rinishlari mavjud. Ikkilik-masnaviy, uchlik-masallas, to`rtlik-murabbag`, beshlik-muxammas, otilik-musaddas, yettilik-musabbag`, sakkizlik-musamman, to`qqizlik-mutassa, o`nlik-muanshar bo'lib, mumtoz adabiyotimizga xos she'r bandlaridir. Bunday band shakllari, ularning qofiyalanish tartibi mumtoz adabiyotimizga xos, arab she'riyati ta'sirida paydo bo'lgan esa-da, xalq og`zaki ijodida ham bandning turli shakllari uchraydi. Zamomaviy she'riyatimiz, jumladan, o`zbek bolalar she'riyati bandning ko`rinishlarini mumtoz adabiyotdan ham, folkordan ham oldi. Bugun o`zbek bolalar she'riyati bandiga ko`ra rang-barangdir. Yuqoridagi she'rlarda qofiyalanish tartibi, asosan, a-b-a-b ko`rinishidadir ammo ayrim hollarda toq misralar qofiyalanmay qolishi mumkin:

Mumtoz adabiyotdan farqli holda bolalar she'riyatida bir she'rning bandlari har-xil tarzda qofiyalanishi mumkin. Shoir to`rtlik tarzidagi bandidan unumli foydalansa ham qofiyalanishning har-xil shaklini qo'llab ketaveradi. Aytaylik, “Vatan himoyachilari” bo`limdagi yana bir she'r diqqatimizni tortadi. Bu Abdulhay Nosirovning

“Istiqlolga sharaf-shon” she’ri bo`lib, bir band—to`rt misradan iborat:

O`zbekiston askarlari,
Buzilmaydi saflari.
Istiqlolga sharaf-shon.
Istiqlolga sharaf-shon.

Bu to`rtlik a-a-b-b shaklida qofiyalangan. Yoki, dastlabki ikki misra bir soda gapdan iboratday: O`zbekiston askarlari safi buzilmayda. Keyingi ikki misra esa aslida bir misra, ikkinchisi uning takrori. She’riy matnda takrorlar ham muhim rol o`ynaydgi, ularning ta’sirchanligi yaqqol bilinadi. Umuman, mavzuning lirik ifodasi o`quvchiga ta’sirliroq bo`ladi, desak yanglishmaymiz. Shoirlar tavze, ya’ni, tovush takrorini qo’llab, she’r jozibasini oshirib, ohangdorligini ta’min qiladilar. Po`lat Mo`minning “O`ktam avlod ” she’rida o`qiymiz:

Bolalar bo`lsa,
Topqir bo`lsalar.
Chaqqon-u epchil,
Chopqir bo`lsalar.
Ko`zlari o`tkir
Merganlar kerak
Mardona ko`krak
Kerganlar kerak.²⁰

Keltirilgan misralarda “b”, “l”, “ch”, “q”, “m”, “k” “r” kabi tovushlar tovush takrori sifatida kelmoqda, ular chiroylı ohang hosil qila olgan.

“Anafora” grekcha so`z bo`lib, “yuqoriga ko’tarish” degani. “Bir xil so`z yoki so`zlarning she’riy misralar boshida takrorlanib kelishiga asoslangan stilistik figura”²¹ deyiladi. 3-sinf o`qish kitobidagi she’rlarda anafora uchraydi. Bu Vatanni tarannum etadigan she’rlarda o`z mavqeiga ega. Shoirlar Vatanni sevadigan, Vatanni sevish unga xizmat qilishdir deb tushunadi. Vatan ular uchun insonning tug`ilgan joyi. Mavzuning lirik

²⁰ O’sha joy, 110-b.

²¹ Hotamov N, Sarimsoqov B, adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati. –B. 30.

ifodasidagi satrlar shunchaki ta'rif-tavsif emas, balki shu yurt farzandining yurak qa'ridan jo'shib chiqqan dil so'zlari, bu satrlar yosh she'rxonni Vatanni sevishhga, uni ko'z qorachig`iday asrab-avaylashga, qadriga yetishga chorflaydi.

Vatan haqida yozmoq, uni ta'riflamoq, siymosini chizmoq oson ish emas. Dunyo yaralib, shoir xalqi dunyoga kelibdiki, Vatanini kuylashadi, Vatan siymosini so`z bilan barpo qilishga urinadi. Bolalar shoirlari har daqqa, har on Vatan himoyasi, yurt tinchligini o`ylab, she'rlarida bu kechinmalarni bayon qiladilar. Ular Vatanni madh etar ekan, ta'rif-tashbeh bilan chegaralanib qolmaydi.

Shu o'rinda bolalar shoiri Dilshod Rajab ning "Vatan haqida she'r"ini misol keltirish mumkin. Ta'kidlanishicha, shoir bolaligida dramto`garakda qatnashgani, ammo vatanfurush rolini o`ynash lozim bo`lganda u yerni tashlab ketganini yozadi. Shoir hatto sahnada ham Vatanga xiyonatgkor rolini o`ynash yuragini "zilziladay titratdi birdan" deb ta'kidlaydi. U faqat vatanparvar bo`la olishini aytadi, sahnadan minglab ko`zlarga boqib, Vatan haqida she'r o`qib, vatanfurushlikni so`z-o`q bilan otishini aytib taskin topadi:

She'r o`qidim xushbo`y nasimlar
Bag`ringda hur yelar, deb Vatan
Seni ko`r bo`l degan razillar
O`zлari ko`r do`lar deb, Vatan!

Darhaqiqat, shoirlar Vatan siymosini gavdalantiruvchi she'rlari bilan barkamol yosh avlodni tarbiyalashga, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi, shu fazilati bilan ham yashovchanlik kasb etadi. Zotan, 3-sinf o`qish kitobining "Vatan himoyachilari" bo`limida berilgan she'rlar avvalo, mavzusi, so`ngra, uning ifodasiga xos xususiyatlar, band, qofiyalanishi, tashbehlari va badiiy san'atlardan foydalанишига ко`ра motivatsiya uyg`otadi. Ayniqsa, kichik yoshdagи mактаб o`quvchilari ko`proq she' yod olishni, uni ifodali aytib berishni xush ko`radilar. Ularga tavsiya etilayotgan kitoblar orasida albatta,

she'rlar bo`lishi shartligi ham shundan. Bolalikda yod olingan she'rlar esa xotirada abadiy qoladi. Qolaversa, o`zbek bolalar she'riyati badiiy tasvir vositalariga boy. Bolalar shoirlari tashbeh, tashxis, talmeh, tavze, mubolag'a, sifatlash kabi san'atlardan o`rinli va samarali foydalanib, keladilar. Bunday xulosani bugungi o`zbek bolalar she'tiyati, jumladan, 3-sinf o`qish kitobida berilayotgan she'rlar haqida ham aytish mumkin. "Poeziya ta'kidlaydi , -T. Boboyev,— murakkab va g`oyaga boy san`at, u inson qalbining nozik his-tuyg`ularini hissiyotlar va harakatlarni ehtiroslar kurashi va rivojini emotsional tarzda ifodalaydi. Lirikaning qahramoni inson ta'kidlaydi olim,— ko`pincha shoirning o`zi bo`lib lirk qahramon sifatida namoyon bo`ladi. Voqelikni lrik qahramon kechinmalari orqali aks ettirilishi lirikaning bosh xususiyatidir." Bunday bolalar she`rlari ham mustasno emas. Kichkintoy qahramonlar tilidan aytilgan so`z va ifodalar, hayajon va ehtiroslar aslida shoir kechinmalaridir.

Umum adabiyotga bo`lganidek, bolalarga mo`ljallangan she`rlarida ham tasvir imkoniyatlari nihoyatda keng. Poetik fikr, mulohaza asosiy o`rinni egallaydi. Yoxud, Abdurauf Fitratning quydagi: "she`rda kishilarning qonini qaynatuvchi sezgilarini uyg`otuvchi, miyasini titratuvchi bir ma`naviy kuch bor. Shunday bir kuchi bo`lмаган со`з "vazn" va qofiyasi bo`lsin, she`r bo`la olmaydi. Chin she`r yurak sezgувчиларни ко`rsatmakdir. Vazn va qofiya esa со`zning bezagidir",— kabi mushohadalarni-da mezon qilib olish o`rinli. Shu bilan birga bolalar she`riyatining o`z tamoyillari mavjud. Bunda avvalo, pedagogik psixologik jihatdan bolalarning yosh xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat taraqqiyotida yosh avlod ta'lim-tarbiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda avvalo, mактабнинг бoshlang`ich sinf o`quvchilariga, jumladan, o`qish kitoblariga e'tibor muhim rol o`ynaydi. Mustaqillik yillarida ta'limga berilayotgan e'tibor keljakka e'tibor yanglig` davlat dasturi darajasiga

ko`tarilgani e'tirofga loyiq. O'zbekistonda har yili ta'lim uchun sarflanadigan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etishi fikrimiz dalilidir. "Ta'lim to`g`risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ta'lim sohasida olib boriladigan ishlarning mazmuni va istiqbolini belgilab berdi. Bular asosida Davlat ta'lim standartlari, dasturlar va darsliklarning yangi avlodlari yaratildi. Ta'limda rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanimoqda. Jamiyat va ilm –fan tinimsiz taraqqiy etaveradi. Darsliklarning ham yangidan yangi avlodlari nashr etilaveradi. Yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kun o'qituvchisining vazifasidir. Binobarin, o`qish darslari atrof-muhit, insoniy munosabatlar, Vatanning o`tmishi va hozirgi kundagi hayoti, unda insonlarning o`rni haqidagi o`quvchilar bilimlarini kengaytiradi, dunyoqrashlarining shakllanishiga, ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko`rsatadi. Natijada, o`quvchilarda ijobiy-axloqiy sifatlar shakllana boshlaydi, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, insonparvarlik hislari rivojlanadi.

II bob bo`yicha xulosalar

Istiqlol davri bolalar she'riyati rang-barang usullarda, shakllarda berilayotgan ekan, ularni o`tishda ham nafaqat yangi pedagogik taexnologiyalar, balki, she'r ruhiyati, mazmun-mundarijasiga qarab o`qituvchi o`z mahorati darajasida darsni olib borishi lozim. Shunda guruhdagi o`quvchilarning salohiyati, ijodiy tafakkuri ham zamon talablari asosida tobora jadal rivojlanayotgan intellektual salohiyat sohiblarini kamol toptirishga hissa qo'shgan bo`lamiz. Zero, o`sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual rivojlangan, jismonan sog`lom va ma'nan barkamol qilib voyaga yetkazishda istiqlol davri she'riyatining o`rni va ahamiyati katta.

III BOB

O`QISH DARSLARIDA ISTIQLOL DAVRI SHE`RLARINI

O`RGANISH USULLARI VA AHAMIYATI

III.1. O`qish darslarida istiqlol davri bolalar she`rlarini

o`rganishda interaktiv metodlardan foydalanish

She`r - janr jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg`u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik ruh. She`rni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo`laklarning izchil bir me'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so`zlar) hisoblanadi.

She`rni o`qiganda kichik yoshdagi o`quvchilar tabiat va jamiyat voqealari-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim xususiyatga ega. Boshlang`ich sinflarda she`r tarzida yozilgan hikoyalar, nasriy hikoyalar va lirik she`rlar o`qtiladi.

She`riy hikoyada syujet, ya`ni voqealar sistemasi va uning rivoji xarakterlidir. Boshlang`ich sinf darslarida asosiy o`qish turi ifodali o`qish hisoblanadi. Tursunboy Adashboyevning "Navoiy bobomlar» she`riy hikoyasi -mazmunli savollar yordamida gapirtirilishi mumkin. Ammo lirik she`rni tahlil qilish o`qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Lirik she`rni o`qish darsida eng asosiy ish turi uni his-hayajon bilan ifodali o`qishdir. She`r ifodali o`qilgach, undagi tushuntirish uchun bo`lgan so`z va iboralar ikki-uch so`z bilan izohlanadi.

She`rni o`qishdan oldin ba'zan unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o`tkaziladi yoki she`r mazmunini tushuntirish uchun o`quvchilar bilishi lozim bo`lgan voqealarni o`qituvchi - aytib beradi. Ba'zi she`rlarni o`qishga o`quvchilarny uzoqroq tayyorlash, masalan, Qudrat Hikmatning "Qish", "Bahor" she`rlarini o`qishdan oldinroq tabiatni kuzatish, boqqa, qir-adirlarga ekskursiya o`tkazish maqsadga muvofiq.

Boshlang`ich sinflarda ko`rgazmali ta'limning asosiy formasi lirik she'rni ifodali o`qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham, she'riy hikoyani ham o`quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhimdir. Shuning uchun she'r birinchi marta o`qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o`quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o`qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so`z kuchliroq ta'sir etsin.

O`qish oddiy bo`lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g`azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo`l qo`ymaslik zarur. Bolalar she'rni o`qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari, she'r ritmini buzmasliklariga erishish lozim.

She'r mazmuni ham, boshqa janrdagi badiiy asarlar kabi, savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo she'r mazmuni haqida o`quvchilarga ko`p savol berish tavsiya etilmaydi. O`quvchilar she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosilqilishning o`zi kifoya. Masalan, 4-sinf o`quvchilari Qudrat Hikmatning «Qish to'zg'itar momiq par» she'rini o`qiganda, «qaysi fasl haqida o`qidingiz? Savoliga javob berishlari yetarli; 4-sinf o`quvchilari shu shoirning «Bahor» she'rini o`qiganda, o`qituvchi «She'nda yilning qaysi fasli haqida o`qidingiz? (Bahor.) «Shamol haqida nima deyiladi? Terak, bedapoya, qushlar haqidachi?» savollarini beradi. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o`ziga xos fikrlari, his-tuyg`ulari, qiziqishlarini ifodalovchi,

shuningdek, zamonamiz qahramonlari, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she'rlar mazmunini to`liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she'rlarni o`qishga o`quvchilar maxsus tayyorlanadi: she'r mazmuniga asos bo`lgan tarixiy voqeа haqida qisqa so`zlab beriladi yoki suhbat o`tkaziladi.

Boshlang`ich sinflarda o`qitiladigan ko`pgina she'rlarni tahlil qilib, ifodali o`qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi

topshiriladi (o'quvchilar darsda ifodali o'qimagan she'rni uyda ifodali yod aytib berishga tayyorlanishni tavsiya etilmaydi).

Bolalar she'rni yoqtiradilar. Kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar, keyin yoddan ifodali o'qiydilar.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga she'rni qanday yodlash kerakligi o'rgatiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan she'rni teng satrli bir necha qismga bo'ladi. O'quvchilarga har bir satr oxirida ritmik pauza qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgi bo`lishi shart emasligi, ritmik pauzada ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi va bo`lingan qismlar navbatli bilan yodlatiladi.

“Maktab kutubxonasi turkumidagi “Kitobim – oftobim” nomli sinfdan tashqari o'qish kitobi 1-4-sinf yoshidagi bolalar uchun mo'ljallab tuzilgan bo`lib, uning to`rt sinfga atalgan alohida-alohida namunalari bor. Har bir kitob majmua xarakteridagi asarlar to`plamidan iborat. Unda juda ko`p taniqli bolalar shoir va adiblarining hamda xalqning og`zaki yaratilgan asarlardan namunalar keltirilgan. Ulardan o'quvchilar mustaqil o'qish uchun foydalananadilar. Shunday asarlar qatorida el tanigan shoir Mirazziz A`zamning ham ayrim she'rlari ushbu kitobdan o`rin olganligiga guvoh bo`lish mumkin. Jumladan, 1-sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari mustaqil o'qishlari uchun mo'ljallab tuzilgan “Kitobim – oftobim” kitobining 6-sahifasida shoir Mirazziz A`zamning “Qo`lni qo`lga beraylik” she`ri keltirilgan. Bu she`r har bandi to`rt misradan tarkib topgan besh bandni tashkil etadi.

Biz bu ozod diyorning

Eng umidbaxsh unimiz.

Birinchi sentyabrda

Mustaqillik kunimiz.

She`rning boshlang`ich bandini tashkil etgan bu misralar ikkita yoyiq sodda gap tuzilishiga ega. Jumladan, unda gap bo`laklari quyidagi tartibda joylashgan:

Biz bu ozod diyorning eng umidbaxsh unimiz – Birinchi gap.

Ega – 3 ta, aniqlovchi - hol -kesim

Birinchi sentyabrdha Mustaqillik kunimiz.

– Ikkinci gap. Payt holi- ega- kesim

Ma`lumki, bunday sodda tuzilishdagi gaplar bilan hosil qilingan she`riy misralarni bolalar osonlik bilan yodda saqlaydilar. Bolalarga bunday she`rlarni yodlatish aslo qiyin kechmaydi. Shuning uchun Miraziz A`zamning she`rlari endigina savod o`rganayotgan bolalarning o`qib-o`rganishlariga juda qulay bo`lib, ulardan ta`lim-tarbiya jarayonida foydalanib kelinmoqda, ya`ni darsliklarga kiritilmoqda.

Qo`lni qo`lga beraylik,
Vatan bo`lsin guliston.
Hurlar aro hur bo`lsin
Mangu buyuk Turkiston.
Birinchi sentyabrdha
Chaqnab tursin chiroqlar.
Ko`chalar yorug` bo`lsin,
Hilpirasin bayroqlar.
Birinchi sentyabrdha
Yangi hayot boshlandi.
Go`zal hayot qurishga
Dadil qadam tashlandi.
Quramiz buyuk davlat,
Qoldirib izimizni.
Xalqlar aro oq bo`lar,
Ko`rasiz yuzimizni.

Ko`rinyaptiki, ushbu she`r nafaqat tuzilishi, balki chuqur mazmundorligi bilan ham ta`lim-tarbiya jarayonida foydalanishga juda mos keladi. Shunisi inobatga olinib, u maktab darsliklariga kiritilgan. Ijodkor bolalar o`rtasidagi do`stlik, hamjihatlik, ona-Vatanga cheksiz muhabbat, odobli bo`lish, sidqidildan o`qish uchun intilish, kurashish kabi masalalarni ko`proq ochib berishga harakat qiladi.

Bunday she'rlarni o'qish darslarida va sinfdan tashqari darslarda o'rghanish o'quvchilarga Vatan va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, bu orqali esa milliy istiqlol g'oyasini singdirishga zamin yaratiladi. Natijada, o'quvchilar uziksiz ta'limning keying bo'g'inlarida bu tuyg`uni yanada teranroq tushunishlariga poydevor yaraladi.

Binobarin, boshlang`ich sinflarda o'quvchilar nutqini o'stirishdan tashqari, savod o'rgatish metodikasi, yangi elementar o'qish va yozishga o'rgatish qonun-qoidalarga asoslanadi. Bolalarga savod o'rgatish pedagogikasi ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy qo'yilgan muammodir. Chunki savodxonlik siyosiy, onglilik uchun, madaniyat uchun kurash quolidir.

O'qish metodikasida boshlang'ich sinflarda o'qishning vazifasi, birinchi navbatda, bolalarmi tez (me'yorida) to`g`ri, ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Grammatika va imlo metodikasi. Bu bilim elementar to`g`ri yozuvga va h u s n i x a t o ' r g a t i s h n i , g r a m m a t i k t u s h u n c h a l a r n i , boshlang'ich imlo malakalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinflarda matn tahlili alohida o'rinn tutadi. Bolalar birinchi marta tilni, nutqni o'quv peredmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqqan narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o'ylab, rejalashtirib nutq tuzish zarurligini tushuna boshlaydilar, o'z-o'zlarining grafik shakli bilangina evas, balki leksika, sintaktik va morfologik shakli bilan ham og'zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni egallaydilar.

O'qish bolalarning nutqini boyitishni, sintaksisi va bog'lanishni, nutqini o'stirishni ham ta'minlash kerak. Zotan, boshlang`ich sinf o'qish darslarida milliy istiqlol g'oyasini singdirishda shu mavzudagi matnlarni tahlil qilishga alohida e'tibor zarurligi ayonlashadi.

Boshlang`ich sinf 4 -sinflarda ta'lif jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lif jarayoniga qiziqtiradi. Darsga faol qatnashishga, bilimlarni puxta egallahsga

undaydi. Yana shunday samarali usullardan biri “baxtli tasodif”-usulidir. Bu usul orqali mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriqlarni nechog`lik o`rganilganligini aniqlash oson bo`ladi. Buning uchun qog`ozdan kartochkalar tayyorlanadi va har bir kartochkaga 2-3 tadan savol qo`yiladi. Faqat bitta kartochkaga “yutuq” - 5 baho deb yoziladi. Shu yutuqli kartochka kimga nasib qilsa, “Baxtli tasodif”-sohibi hisoblanadi va darsda eng yuqori balni oladi. Savolli kartochkalar olgan o`quvchilar ham savollarga bergan javoblar asosida baholanadilar. Masalan, 4- sinf o`qish darsida “baxtli tasodif” o`yini tashkil etilishi mumkin. Shunday usullar o`quvchida bilimga ishtiyoq uyg`otadi. O`quvchi darslarga puxta hozirlik ko`rishga intiladi. O`qituvchi metod tanlashda interaktiv metodlarga e'tiborini qaratish darkor va u faoliyat samaradorligini oshiradi. Interaktiv so`zi inglizcha interaktsion, ya'ni inter-aro, o`zaro asl-harakat ma'nosini bildiradi. Bu o`zaro harakat, ya'ni hamkorlik asosida o`qitish demakdir. Ana shunday metodlardan biri **FSMU** metodidir. **FSMU**-texnologiyasi munozarali bahslarni hal etishda, babs munozaralar o`tkazishda yoki umumlashtirish darslarida, o`quv rejasi asosida biror bo`lim o`rganilib bo`lingach, qo`llanilishi mumkin. Bu texnologiya o`quvchilarning o`z fikrini himoya qilishga, ularga tarqatilgan oddiy qog`ozga o`z fikrlarini aniq va qisqa ifodalab tasdiqlovchi dalillar, yoki inkor qiluvchi fikrlarni o`z o`rnida bayon etishiga yordam beradi. U bir necha bosqichda o`tkaziladi:

1-bosqich. O`qituvchi o`quvchilar bilan birga bo`lgan muammoni, shuningdek, o`rganiladigan bo`limini belgilab oladi. U o`quv mashg`ulotlarida avval har bir o`quvchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo`lib ishlash haqida ma'lumot beradi. Mashg`ulot davomida har bir o`quvchi o`z fikrini mustaqil va erkin holda to`liq bayon etishi mumkin.

2 - bosqich. Har bir o`quvchiga **FSMU** texnologiyasining 4 bosqichli yozilgan qog`ozlari tarqatiladi. **F**-fikringizni bayon eting. **S**-fikringiz bayoniga sabab ko`rsating. **M**-ko`rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring. **U**-fikringizni umumlashtiring.

3- bosqich. Har bir tinglovchi o`z qog`ozlarini to`ldirib bo`lgach, o`qituvchi ularni kichik guruhlarga bo`linishlarini aytadi yoki o`zi bu vazifani bajaradi. Har bir guruhgä *FSMU* texnologiyasining 4 bosqichli yozilgan katta formatdagi qog`ozlar tarqatiladi. O`qituvchi kichik guruxlarning har birlari yozgan qog`ozdagи fikr va mulohazalarini katta formatdagi qog`ozga umumlashtirilgan holda 4 bosqich bo`yicha yozishlarini taklif etadi.

4 - bosqich. Kichik guruhlardagi har bir o`quvchi barcha bosqichga doir o`zi yozgan fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o`tadi. Guruh a'zolarining jami fikrlari o`rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi. Fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir o`quvchi o`z fikrini himoya qilishi, isbotlashi lozim bo`ladi.

5 - bosqich. Kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarni himoya qiladilar. Guruh vakili har bir bosqichni alohida o`qiydi. Ba'zi bo`limlarni isbotlash, ya'ni guruhining aynan nima uchun shu fikrga kelgani aytib o`tishi mumkin.

6- bosqich. O`qituvchi mashg`ulotlarga yakun yasaydi, guruh a'zolari fikriga o`z munosabatini bildiradi.

Trening muloqot ham o`quvchilarga milliy istiqlol g`oyasini singdirishhdha muhim usullardan biri hisoblanadi. Ushbu trening o`quvchilarining dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o`z fikrini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo`lib, odatda bunday mashg`ulotlar tinglovchilarni kichik guruhlarga bo`lgan holda o`tkaziladi.

Bundan tashqari, 4-sinf o`quvchilariga milliy istiqlol g`oyasini tushuntirishda “Idrok xaritasi”, “Tarmoqlar metodi” (klaster)dan foydalanish mumkin (bu metod namunasi ishimiz ilova qilinadi). Fikrlarning tarmoqlanishi bu pedagogik strategiya bo`lib, o`quvchilarni biron-bir mavzuni chuqur o`rganishlariga yordam berib, mavzuga oid yoki, aniq fikrni erkin mavzuga ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog`langan holda tarmoqlashuviga o`rgatadi. Yana o`tilgan mavzuni mustahkamlash hamda o`quvchilarni shu mavzu bo`yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Aytaylik, davlat ramzlarini idrok xaritasida aks ettirish, G`ulom Shomurodning “Ozod Vatan mehri”

she'ridagi “O'zbekiston” tushunchasini tarmoqlash metodi bo'yicha o'rghanish maqsadga muvofiq.



Umuman, 4-sinf o'quvchilariga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda shu kabi ijodiy fikrlashga asoslangan, davr bilan hamnafas bo`lishga intilish yetakchilik qiladi. Xoh she'riy matn, yoki, nasriy matnlar bo`lsin, mohiyatan mustaqillik yillari voqeligi bilan bog'liq jarayon talqin etiladi. Milliy istiqlol g'oyasini tarannum etuvchi asarlarni o'rghanishda ham rang-baranglik muhim.

Shunga o'xshash, milliy istiqlol g'oyasi o'quvchilarga “O'yla, izla, top” metodidan foydalanish orqali teranroq tushuntiriladi. Bu metoddha o'quvchi

fikrlashni boshqotirma, yechimli, muammoli vaziyatlarga ijobiy yaqinlashishini o`rgatadi.

Boshlang`ich ta'limning hal qilinishi zarur bo`lgan asosiy vazifalaridan biri o`quvchilarni mustaqil ishslash va mustaqil baholashga o`rgatishdir. Buning uchun o`qituvchi o`quvchining o`z bilimini aniq baholash qobiliyatini rivojlantirishi kerak. mavzuni testlar, topshiriqlar orqali to`g`ri baholashning yo`li ko`p. Testning ko`p javobliligining o`ziyoq o`quvchining o`z faoliyatini to`g`ri bajarishi, xatolarini ko`rishi imkoniyati va yo`l qo`yilgan xatolarni tahlil qilish, ularning sababi, qiyinchilik keltirgan vaziyatlarni bartaraf qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, testning savol-topshiriqlari o`quvchi tafakkurini rivojlantiradi, bilimini amalda qo`llash istagini kuchaytiradi. Topshiriqli testlarning turli-tumanligi bola aqlini charxlaydi va tafakkurini rivojlantirishni ta'minlaydi. 4-sinf o`qish kitobidagi milliy istiqlol g`oyasi ifoda etilgan matnlar bo`yicha quyidagicha test tuzish mumkin:

1. “Serquyosh o`lka” she’rining muallifi qaysi javobda to`g`ri berilgan.

- A) Zafar Diyor
- B) G`ulom Shomurodov
- S) Abdulla Oripov
- D) Safar BArnoyev

2. Abdulla Oripovning she’rini aniqlang.

- A) Mangulikka tatigulik kun
- B) Iqboli buyuksan
- S) Ozod Vatan mehri
- D) Serquyosh o`lka

3. Kichik Vatan qayerligi va bu hikoya muallifini aniqlang.

- A) odamning yashaydigan uyi, hovli-joyi, Ashurali Jo`rayev.
- B) ko`chasi, Safar Barnoyev
- S) viloyati, Erkin Malikov
- D) mahallasi, Zafar Diyor

Bunday testlar 4-sinf o`quvchilariga milliy istiqlol g`oyasini singdirishda o`ziga xos maktab vazifasini o`taydi.

Yoki, darsda savol-javoblardan o`quvchilarni charchatib qo`ymaslik uchun dars davomida zamonaviy pedagogic texnologiyadan keng foydalaniladi. Bunda o`yin usuli samara beradi. Masalan, “Baliq ovlab o`ynaymiz-u o`ylaymiz” o`yinidan foydalanish foydadan xoli bo`lmaydi. Bu o`yinda qutichadan daryo yasaladi, ichiga baliqchalar rasmi joylashtiriladi, quticha atrofi oq qog`oz bilan suv rasmi chizilgan holda o`rab chiqiladi. Baliqchalar beliga skrepka bilan mahkamlanib, raqamlab qo`yiladi. Tarqatma varaqqa tariqasida qog`ozga savollar yozilib, alohida qo`yiladi. Magnitdan qarmoq yasaladi va doskaga chiqqan o`quvchi daryodan baliq tutib, raqamiga qarab, tarqatma varaqdagagi savollarga javob beradi. Bu o`quvchining qiziqishini ortiradi va o`quvchi doskaga chiqib baliq tutish uchun darsga ijodiy yondashib, tayyorgarlik ko`radi. Muhimi, tarqatma yoki, raqamlangan savollar asosan, milliy istiqlol g`oyasini asoslovchi fikrlardan, mavzulardan tuziladi, shu mavzudagi she`r va matnlar misol qilib olinadi.

She`riy matnlarni o`zlashtirishda esa “So`z zanjiri” o`yini o`tkazilishi maqsadga muvofiq. Bunda sinfni uch guruhga bo`lib, guruhga nom beriladi. Magnit yopishtirilgan oy rasmini xattaxtaga osib, yasalgan uchta raketani har bir parta boshiga qo`yib qo`yiladi. Kim ko`p so`z topsa, shu guruhnинг raketasi oyga birinchi uchadi, deb tushuntiriladi.

O`quvchilar birma-bir yozuv taxtasiga chiqib, so`z zanjirini tuzadilar. Kim to`xtab qolsa, mag`lub, uzun zanjir tuzgan g`olib bo`ladi. O`yin mushoira tarzida davom etadi. Masalan, 1-guruh A.Oripovning “Iqboli buyuksan”, 2-guruh G`.Shomurodovning “Ozod Vatan mehri”, 3-guruh “Serquyosh o`lka” she`rlaridagi qofiyalarini topish bo`yicha “zanjur” tuzishi mumkin. ya`ni, xattaxtaga chiqqan o`quvchi, yoddan she`r misralaridagi qofiyalanuvchi so`zlarni marjondek tizib chiqishi lozim. Aytaylik, 1-guruh- “Onaga-otaga, hayotni-ustozni; farzandi, dilbandi, keng, teng, suyaging-kuraging, sen tani-Vatanni, suyuksan-buyuksan” kabilarni keltirsa; 2-guruh : “diyor-hosildor”,

vatandir-chamandir, mehrin-madhin, o`ylaymiz-kuylaymiz, adab-maktab, katta-albatta”; 3-guruh “yurtimni-dunyoni, havosi-navosi, pishadi-tushadi, o`zbekiston-bo`ston” kabilarni zanjirga tizishi kerak. Bunday usul, o`quvchilarga she’rni puxta yod olish, ayni paytda 4-sinf o`quvchisi qofiya haqida tushunchaga ega bo`lish kerakligini anglatadi. She’rni yod olgan o`quvchi esa, albatta, uning mohiyatini ilg`ashga harakat qiladi; yoki, xotirasiga muhrlanib qolgan she’r mazmuni u voyaga yetganda ham qulog`I ostida jaranglab turadi. Xullas, 4-sinf o`quvchilariga milliy istiqlol g`oyasini singdirishda shu kabi usullardan keng foydalanish ancha qo`l keladi.

Istiqlol davri bolalar she’riyati rang-barang usullarda, shakllarda berilayotgan ekan, ularni o`tishda ham nafaqat yangi pedagogik taexnologiyalar, balki, she’r ruhiyati, mazmun-mundarijasiga qarab o`qituvchi o`z mahorati darajasida darsni olib borishi lozim. Shunda guruhdagi o`quvchilarning salohiyati, ijodiy tafakkuri ham zamon talablari asosida tobora jadal rivojlanayotgan intellektual salohiyat sohiblarini kamol toptirishga hissa qo`shgan bo`lamiz. Zero, o`sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual rivojlangan, jismonan sog`lom va ma’nan barkamol qilib voyaga yetkazishda istiqlol davri she’riyatining o`rni va ahamiyati katta.

III.2. Davr bolalar she’riyatini o`rganishning ta’lim-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy dolzarbligi

Anvar Obidjon "O`qishga chanqoq va yuksak didli kitobxonlarni tarbiyalab etishtirish uchun esà bolalarning qo`liga yaxshi kitoblar tutqaza bilishimiz kerak", - deganiga ham yigirma besh yildan oshibdi. SHoir, nosir, dramaturg Anvar Obidjon o`z mulohazalarini ijodi jarayonida atroflicha inobatga oldi va har jihatdan pishiq asarlar yarata bildi. Uning asarlari bolalar adabiyotshunoslari tomonidan ozmi-ko`pmi tadqiq qilinmoqda. Biz Anvar Obidjon she`riyati badiyatining bir jihatiga e`tibor qilmoqchimiz. XX asr oxirlaridan hozirgacha o`zbek bolalar she`riyatining taraqqiyotiga munosib hissa

qo`shib kelayotgan shoir boy fol'klorimizdan o`rinli foydalandi. SHoir she`riyatining xalqchil, bolalarbop, qiziqarli bo`lishida fol'klorizmning, jumladan, janr stilizatsiyasining munosib o`rni bor. "Fol'klor janrlarini o`zlashtirib, ularni yozma adabiyotga olib kirish janr stilizatsiyasi hisoblanadi", - deb yozadi olima L.Sharipova. O`zbek bolalar she`riyati vakili Anvar Obidjon ham fol'klorizm yordamida asarlarining qiziqarli, jozibali bo`lishini ta`minladi. SHoir janr, obraz, motiv, ritm, stilizatsiyasi orqali o`z she`riyatini fol'klor chashmasidan oziqlantirdi. Biz faqat janr stilizatsiyasi haqida to`xtalmoqchimiz. Anvar Obidjon ertak janridan foydalanib, ertak-doston, ertak-p'esalar yaratdi. Adabiy ertak yaratishda ustozlar an`anasini davom ettirgan bo`lsa-da, ulardan farqli o`laroq asar orqali bolalarga o`git berish bilan cheklanib qolmadi. Bolalarni ham, kattalarni ham ozodlikka chorladi, ulargaadolat, erkinlik tuyg`ularini majoziy obrazlar yordamida singdirishni maqsad qildi.

Anvar Obidjonning "Odil Burgutshoh va "Zamburug`` laqabli josus haqida ertak" ertak-dostonining bosh qahramoni - Burgutshoh. SHoir kontrast usuli, ya`ni holatlarni qarama-qarshi qo`yishdaí foydalandi. Asarda burgut va qarchig`ay, lochin va sor, qizilishton bilan qorayaloq, bulbul bilan boyqush qarama-qarshi qo`yilgan. Yosh kitobxon o`zaro zid qo`yilgan obrazlarni solishtirib, tabiatda ular qanday qushligini o`rgansa, shoir ularni to`g`ri zidlantirganini anglashi mumkin. Negaki Burgut mag`rur qush, u o`laksa emaydi, o`lganda ham mag`rur, o`zini qoyalarga urib o`ladi. Qarchig`ay burgutga etolmaydi. Aytaylik, bola-kitobxon bulbulning sayroqi qushligini, boyqush tunda yuradigan, vahimali ovozda sayraydigan qushligini tez anglaydi. Bu asarning o`quvchiga ta`lim beradigan jihatlaridan biridir. Ýrtak shunchaki yozilmagan, unda jiddiy muammo ko`tarilgan. Konfliktlar e`tiborni tortadigan darajada dramatizm bilan sug`orilgan. Ýrtakning tuguni Qarchig`ay va Burgut orasidagi qarama-qarshilikdan boshlanadi. "Zamburug``ning josus bo`lib Burgutning yurtiga kelishi tugundagi sirlilikni oshiradi. "Zamburug`` laqabli Popishak josus sifatida saroya kirar ekan, malika Shabnamga ustozlik qiladi. U saroyni o`rganib, Burgutshohni engish yo`llarini o`ylaydi. Topadi ham. Malika

Shabnam va shahzoda Quyosh bir-birlarini sevar ekanlar. Ammo Shabnamga Chaqmoq uylangan. Chaqmoq to`ng`ich shahzoda bo`lib, bo`lajak tojdar. SHoir voqealar rivoji jarayonida fitnadan foydalanadi:

Ho`ng-ho`ng yig`lab yotarkan Shabnam,
 Kirdi Chaqmoq xonaga ildam:
 - Sendek makkor xotinga la`nat!
 La`nat yog`sın
 Menga ham abad!
 Buncha kalta bo`lmasa fahmim,
 Nechuk idrok etmabdi aqlim, -
 Mamlakatga bo`lgin deya shoh,
 Ýringga baxt tilaganing choq
 Qilganding-ku ukamga g`araz.

Ertakning kul'minatsion nuqtasida Quyosh zaharlanib o`ladi. Chaqmoq xotinini aybdor hisoblab, uni o`ldirishga urinadi. Asl aybdor Popishakligini bilgach, o`zini baland qasrdan erga otadi. Shoir voqealarni shunchaki tasvirlab qo`ymaydi, balki fitna, joususlik, xiyonat har doim mavjudligini, bu iflosliklar bois begunoh, ezgu insonlar bevaqt o`lishi mumkinligini yosh she`rxonga uqtiradi. Popishak zindondaligida soqchi Qarqunoqni aldab-suldab, o`zini ozod qilishga chorlaydi, behisob boyliklar, yaxshi hayot va`da qiladi. Oqibat Popishak ozod bo`lgach, Qarqunoqni o`ldiradi. Shoir xulosasi ertakning ahamiyatini ko`rsatuvchi jihatlardan biridir:

Qichqirgan payt laqma Qarqunoq,
 Ko`kragiga sanchildi pichoq.
 Tanlolmadi o`zibop jo`ra,
 Bo`lolmadi yot yurtda to`ra,
 Bulg`andi el unga bergen tuz,
 Qolib ketdi uyida yolg`iz
 Xotini tul,
 Bolasi sag`ir...

O, sotqinning qismati og`ir?

Asosiy xulosalardan biri shu: "Sotqinlikning qismati og`ir". Shoir fikrida davom etarkan, kitobxonga yana bir ulug` ta`lim beradi.

Mendek mashhur

Qarchig`ayshohga

Shartta qurban bo`lmagan sallot-

Iltifotga loyiqlas...

Jallod!!!

Tiz cho`kib

Dod soldi "Zamburug`";

- Ketingizga bo`layin quyruq"

Popishak o`ldiriladi, shoirning maqsadi ham shu edi, o`quvchisiga "O, joususning qismati og`ir!" yana bir bor ko`rsatadi.

Anvar Obidjon - o`tkir shoir. Bu ertak 1987 yilda chop qilingan kitobga kiritilgan. Demakki, istiqboldan oldin yozilgan. SHoir odil shoh bo`lishini orzu qiladi. Yosh avlodnè uyg`otmoq bo`lib, istiqlol yaqinligini shoir qalbi bilan his qilib shunday yozadi:

Mo`l bo`larmi sandiqlarda don?

Uxlolgaymi tunlar yosh jahon.

Eldoshlarin taqdirin bedor?

Boqolgaymi yovlarga hushyor?

Yurt tarixin supurmasmi el?

O`zligini saqlolgaymi el?

Buzilmasmi ko`hna qasrlar?

Toptalmasmi qutlug` qabrlar?

Va undagi o`ychan lolalar?

...Ertak tamom.

Xayr, bolalar!

Shukrki, ko`p o`tmay elimiz o`zligi uchun qad rostlab, yurt tarixini qayta o`qiy boshladи, dalalarimizda oltin boshoqlar ko`zni olguday bo`ldi. Anvar

Obidjon – ezgu niyatli, teran fikrli, donishmand shoir. Uning barcha asarlari, jumladan, ertaklari yosh avlodning barkamol bo`lib etishishiga mo`ljallab yozilgan. Shu boiñ ertaklarni o`qish, targ`ib qilish, tadqiq qilish davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

Anvar Obidjonning qator she`rlari mohiyatan topishmoq janriga monand. Faqat shoir she`rni topishmoq deb belgilamaydi. Ma`lum bir narsaning xususiyatlarini aniq va ravshan ifodalaydiki, yosh kitobxon topishmoqning javobini topishi mumkin. Ammo shoir muammoli qilib yozgan she`rining echimini sarlavhada berib qo`yibdi. Aslida shoir ularni "Topishmoqlar" nomi ostida berib, sarlavhasini olib qo`ysa, she`rlarning g`oyaviy-badiiy qimmati yanada oshadi:

Bahorda to`n
 Bichaman,
 Uni kuzda
 Echaman.
 Shamol kelsa
 Guvillab,
 To`kilaman
 Duvillab.
 Oling meni,
 Akalar,
 Yeb ketmasin
 Hakkalar.
 Bolangizga
 Yoqaman.
 Ham meva,
 Ham soqqaman.

SHe`rni o`qigan bola uning mohiyatidan yong`oq haqida gap ketayotganini anglaydi. Sarlavhasi "Yong`oq"ligi kitobxon fikrini quvvatlaydi. Yuqorida ta`kidlaganimizdek "Bug`doy", "Paxta", "Sabzi", "Tarpuz", "Uzum", "Anjir", "Bodring", "Karam", "Nok", "Piyoz", "Turp", "Maymanchak", "Gilos", "Anor", "Kartoshka", "Yong`oq", "Kungaboqar", "Qand lavlagi" kabi she`rlarining sarlavhasi olib qo`yilib, topishmoqlar sifatida berilsa, maqsadga muvofiqli. Bu she`rlar janr stilizatsiyasining go`zal namunalaridir:

Behi

Ikkı yuzim
 Burishqoq.
 Dema meni
 Urishqoq.
 Ishga solib
 Aqlimni,
 Sezdirmayman
 Jahlimni.
 Agar,
 SHirin bo`lmasam,
 Xushomadni
 Bilmasam,
 Meni darrov
 Kesishar,
 O`rnimga
 Nok ekishar.

Anvar Obidjon - serqirra ijodkor. O`z ijodi bilan o`zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotida muhim o`rin egallay olgan shoir. Biz uning ijodiga xos bir jihat haqida biroz to`xtaldik. Holbuki Anvar Obijon ijodi har jihatdan tadqiqqa muhtoj va arzigulik.

Barkamol avlod ta`lim-tarbiyasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu jihat Prezidentimiz asarlarida ham o`z ifodasini topgan: “Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg’ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon - e`tiqodini butun qiladigan, vijdanni uyg`otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”.²² Darhaqiqat, ma’naviyatli, komil shaxslargina avvalo insonni anglashga qodir.

Mustaqillik tufayli boshlang`ich sinf darsliklarining yangi avlodini yaratish keng yo`lga qo`yildi. Jumladan, 1-4-sinf o`qish kitoblari chinakam milliy mentalitet ifodasi sifatida, o`zining asl o`zanini topayotir. Ularni tahlil etishda esa tafakkuri tobora rivojiana borayotgan zamondosh bolalar pedagogikasi, psixologiyasi hamda dars o`tish metodikasi sohasidagi eng yaxshi yutuqlarni qamrab olish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy hayotdagi yangilanish va o`zgarishlar boshlang`ich sinf darsliklari, jumladan, o`qish kitoblarida va uni o`qitish sohasida ham yangilanishlarni,

²² Islom Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008. B.19

yangicha yondashuvlarni taqozo etayotgani tabiiy. Binobarin uni o`qitish metodikasida ham zamonaviy va pedagogic innovatsion texnologiyalardan foydalanish dolzarb vazifa.

Bugun axborotlar oqimi shiddat bilan kuchayib borayotgan, kompyuter va umuman texnika olami inson hayotida tobora mustahkam o`rin olayotgan bir zamonda kitob o`qish, kitobxonlik muammosi yanada e`tiborga molik. Kitob va kitobxonlik inson ma`naviy olamining ajralmas qismidir. Kitob o`qishni o`rganish, kitobxon ma`naviyatini shakllantirish ta`lim-tarbiya jarayonidagi eng asosiy vazifadir.

Elektron darsliklarning yaratilayotganligi, axborot texnologiyasini ta'lim jarayoniga kirib kelishi hamda interfaol metodlar tatbiqi o`qituvchi shaxsini qaysi dars turini qanday qo'llay olishiga bog'liq. Bunday sharoitda aksariyat o`qituvchilar aralash (qurama) dars turini qo'llashga o'rganib qolishgan. Ammo, o'quv dasturida belgilangan mavzuning mohiyatidan kelib chiqib, yangi bilimlar berish darsi, mustahkamlash darsi, takrorlash va umumlashtirish darsi hamda o'quvchilar (talabalar) bilimlarini tekshirish kabi ijodiy xarakterdagi darslarni keng qo'llash ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dars tahlilida bu jarayon albatta e'tiborga olinadi. Bundan tashqari, alohida kirish darslari ham mavjud bo'lib, yangi o'quv yilida yoki yangi fanlarni o'tish kirish darsidan boshlanadi. Kirish darsi birinchi dars bo'lgani uchun Yurtimizning mustaqillik yillarida "Mustaqillik darsi"ga aylangani ham bejiz emas. Shuning uchun kirish darsiga jiddiy tayyorgarlik ko'rish har bir fan o`qituvchisidan alohida mas'uliyat talab etadi. Bu darsni muvaffaqiyatli chiqishi o'quvchini (talabani) fanga qiziqtirish, uni insonparvarlik va vatansparvarlik tuyg'usi asosida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari sayohat darslari (tabiat, muzey, teatr, ko'rgazma zallari, o'quv yurtlariga va h-o.) oldindan rejalashtirilgan holda o'zining qat'iy maqsadi va vazifasini belgilab amalga oshiriladi.

Sayohat darslarining tahlili uning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Ana shu usullarning barchasidan 4-sinfo`qish darslarida o`quvchilarga milliy istiqlol g`oyasini singdirishda kengqamrovli foydalanish mumkin. Bundan tashqari, 4-sinf o`qish darslarida o`quvchilariga milliy istiqlol g`oyasini singdirishda sinfdan tashqari o`qish darslarini tashkil qilishda bu mavzu teran ifodalangan she`rlarni yod oldirish, ularni tahlil qilishga o`rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil davlatimizning ertangi kuni, uning gullab-yashnashi va rivojlanishi ko`p jihatdan o`sib kelayotgan avlodning har tomonlama etuk va sog`lom bo`lishiga bog`liq. Bu esa, o`z navbatida, Vatanimizning kelajagi – farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma`naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi. Zero, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ham bu borada: «Biz sog`lom avlodni tarbiyalab etkazishimiz kerak. Sog`lom kishi deganda faqat jismoniy sog`lomlikni emas, balki sharqona odob-axloq va umumbashariy g`oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz», – deydi.

Yosh avlodning ma`naviyatini rivojlantirishda esa bolalar adabiyotining alohida o`rni bor. Ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga etkazishda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar adabiyoti sohasida yaratilgan aksariyat badiiy asarlar yosh avlod tarbiyasida yuksak ma`rifiy, estetik ta`sir kuchiga egadir. Bunday asarlarni aniqlab, ularning bola tarbiyasidagi roli va ahamiyatini maxsus o`rganishga, bu haqda yaxlit ilmiy tasavvur uyg`otuvchi tadqiqotlar yaratishga to`g`ri keladi. Chunki bolalar adabiyoti durdonalari bola tarbiyasida nafaqat badiiy-estetik, balki ijtimoiy mohiyat ham kasb etadi. Ayniqsa, bolalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda ularning ta`siri kattadir. SHuning uchun hozirgi paytda ta`lim-tarbiya jarayonida bolalar adabiyotining eng sara namunalari tanlab olinib, boshlang`ich sinf darsliklariga kiritilmoqda va ulardan muhim tarbiya vositasi sifatida foydalanib kelinmoqda.

Bolalar adabiyotining rivojlanishi va taraqqiyotida esa bir qator mahoratlari ijodkorlarning benazir zahmatli mehnatlari bor. Miraziz A`zam she`rlari rang-

barang mavzularda yozilgan. Ularda vatanparvarlik, do'stlik, mehnatsevarlik, odamiylik singari eng yuksak fazilatlar ko'tarinki ohanglarda badiiy talqin qilingan. Ayniqsa, shoir she'rlarida vatanga muhabbat, uni ardoqlash, elu yurt xizmatida bo'lishni oliv saodat deb anglash g'oyasi muhim o'rinni egallaydi. Masalan, :

Vatan, yurt degan so'z tomoqdan emas,
Ichkaridan, yurakdan chiqmali.
Qay kuni yurt deya tirjaydi bir kas,
Biron so'zi qalbimga yuqmadi.

Vatan, yurt yolg'onga yo`g'rilsa, tukim
Tikon bo`lib ketadi tippa-tik.
Xalqimning kiftiga tushmadimi yukim,
Olloh bildirsaydi behadik?!

Biron so'z, amalim yarasa Vatanimga,
Yuksalishga hissa qo`shtasam biron soat,
Sukr qilar edim yashaganimga
Yo`llarda yurardim bexijolat...

Vatanni qadrlash, uning kelajagi uchun yonib yashash g'oyasini ifoda etuvchi ushbu she'r o`ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun shoirning bu kabi she'rlaridan ayrimlari boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallab yaratilgan darsliklarga ham kiritilganligini kuzatish mumkin.

Yanush Korchak ular tabiatiga xos ana shu xususiyatini ta`riflab yozgan edi: «Bolalarga o`zları sezgan va o`ylaganlarını gapirib berish g`oyat qiyin, chunki ularni so`zda ifodalashga to`g`ri keladi. Bundan ham og`irrog`i esa-yozish. Lekin bolalar shoir va faylasufdirlar.» Chindan ham shunday. Bolalar tabiatidagi «shoirlik»-ularning hamma narsadan hayratlanishlari, har bir hodisadan hayajonlanishlari bo`lsa, «faylasuflik» - hayratni va hayajonni

qo`zg`agan shu narsalar va hodisalarning asl mohiyatiga qiziqishlaridir. «Bu nima?», «Bu nega bunaqa?», «U nima deydi?», «U nega katta yoki nega kichik?», «U qanday o`sadi?», «Nega qattiq?», «Nega yumshoq?», «Suv nega qotadi?», «Quyosh qanday qizitadi?», xullas, shu xildagi sanoqsiz savollar bu yoshdagi bolalarning qiziqishlari hosilasi bo`lib, ana shu savollarga topgan va topolgan javoblari-olamni o`zlashtirish yo`llaridir. Olam ular uchun jumboqqa aylanarkan, ularning o`zlari ham «nimavoy»ga aylanishlari tabiiydir. Shu ma`noda N. Nosov yaratgan Pochemuchka (Nimavoy-o`zbek tilida Bilmashvoy tarzida tarjima qilingan)-bu yoshdagi bolalarning umumlashma obrazi darajasiga ko`tarilgan.

Umuman, maktab yoshidagi kichkintoylar tabiatiga xos «shoirlik va faylasuflik» ular uchun yoziladigan asarlar mavzu doirasining keng, g`oyaviy-badiiy jihatdan sodda va tabiiy bo`lishini taqozo etadi, bu jarayon bola ulg`ayishi bilan oddiylikdan murakkablik tomon yo`g`rilib bormog`i darkor. Negaki, ruhshunoslarning ma`lumotlarga ko`ra, bu yoshdagi bolalar dastlabki bosqichda 3600 tacha so`zdan foydalanishadi. Yetti-to`qqiz yasharliklarida hayvonlar, qushlar, hasharotlar, nobotot va boshqa narsalarga oid ertaklarga qancha qiziqishsa, insonlar va ularning o`zaro munosabatlarini ifodalovchi asarlarga qiziqishlari ham shuncha orta boradi. Bolalar yozuvchilarining vazifasi shu ishtyoqni alangalatishdan iborat.Bunda shu yoshdagi o`quvchilarining hayot tajribalarini umumlashtirish negizida ijtimoiy voqelik mohiyatini ochib berish ular dunyoqarashining shakllanishiga ta`sir qo`rsatuvchi vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yoshdagi bolalar folkordan kengroq bahramand bo`la boshlaydilar: tez aytishlar mashqi bilan nutq tovushlari talaffuzini ravonlashtirsalar, chandish o`ynab so`zlar ohangdoshligini idrok qiladilar; guldur-guplar vositasida so`z va harakat uyg`unligini his etsalar, topishmoqlarni echish jarayonida zehnlarini charxlay boradilar. Hayvonlarga oid ertaklarga qiziqishlari sehrli-fantastik va hayotiy-maishiy ertaklarga omuxtalashib, ular hisobiga to`lisha boradi va xayollariga parvoz bag`ishlay boshlaydi. Hayotiy-maishiy ertaklarni o`qish jarayonida real hayot hodisalariga qiziqishlari uyg`ona

boradi. Ertakka bu xildagi ma`naviy chanqoqlik turli xalqlar ertaklarini ham, shuningdek, yozma adabiy ertaklarni ham sevib o`qishga chog`laydi: Sharl Perro, aka-uka Grimmilar, Hans Kristian Andersen, Petr Ershov asarlarini, ayniqsa, bolalarga moslashtirib tabdil qilingan «Ellada qahramonlari», E. Rapsening «Baron Myunxauzenning sarguzashtlari», shuningdek, A. Tolstoyning «Oltin kalit yoki Buratinoning boshidan kechirganlari», Leonid Solovevning «Nasriddin afandi sarguzashtlari», Sh.Sa`dullaning «Yog`och qo`g`irchoq yoki Kachal polvon sarguzashtlari» ertak-qissalarini, Turg`unboy /oyibovning adabiy-nasriy ertaklarini zavqu shavq bilan o`qiydilar. Multfilmlarga va qo`g`irchoq teatrlari spektakllariga o`chliklari zamirida ham aslida ertakka ehtirosli qiziqishlari yotadi.

III bob bo`yicha xulosalar

XXI asr o`quvchisining tafakkuri o`tkir. Dunyoqarashi keng. Mustaqillik yillarida bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalariga keng e'tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining qiziqishlari, ruhiy, ma`naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali o`quvchilarda axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirishga ahamiyat berilmoqda. Istiqlol davri o`zbek bolalar she`riyati vakillarini eslaganda ko`z o`ngimizda X.To`xtaboyev, A.Obidjon, K.Turdiyeva va shu kabi ustoz adiblar qatorida T.Adashboyev ham namoyon bo`ladi. T.Adashboyevning yumorga, hazil-mutoyibaga yo`g`rilgan asarlari nafaqat bolalarni, balki kattalarni ham chinakamiga kuldira oladi. Uning she`riyati pokiza qalb egalari – bolajonlarning ko`ngillariga dunyoviy go`zallikni, badiiy san`atni jo qilish qudratiga ega. |Balki shu bois ham shoir yaratgan asarlar o`z qadr-qimmatini yo`qotmay kelayotgandir. Shoir chinakamiga bola hayoloti, bola tasavvuri, bola so`zlarini hech qanday bo`rttirishlarsiz ohib bera olgan. T.Adahboyevning “Novvot”, “Yalayapman”, “Baqalar”, “Yalqov”, “Qo`g`irchoqni avaylab”, “Hali Yosh-da” kabi she`rlarida ham quvnoq, yengil kulgi vositasida kichkintoylar dunyosiga xos murakkab holatlar

ochib berilgan. Shoir she`riyatining asosiy xususiyati – qisqa va lo`ndalik, qissadan hissa chiqarishdir. She`riyatining mavzu ko`lami esa boy va salmoqlidir. Chunki shoir deyarli barcha mavzularda qalam tebratib, ularni bolalar dunyosi bilan uyg`unlashtirgan holda yorita olgan. Ayniqsa, u Vatan, muqaddas zamin, poklik va halollikadolat va haqiqat, mehr-shavqat tuyg`ularini, tabiat manzaralarini she`r, qo`shiqlarida bolalarga xos til orqali jozibali tasvirlaydi. Shu bois ham, hech ikkilanmasdan bu qalam sohibining she`riyatini - bolalar olamining ko`zgusi, deya olishimiz mumkin. Darhaqiqat, T.Adashboyev hayot va turmush voqe-a-hodisalarini, odamlar dilidagi turfa tuyg`ularini bolalar tili vositasida ifodalashga harakat qiladi. Hayotda o`zgalarning ijobiy tomonlaridan ibrat olib, ularga taqlid qilib yashash bolalarga xos fazilatdir. Shoir she`rlarining ko`pchiligi bolaning xuddi shu ruhini ifoda etgan. T.Adashboyev she`riyati bolalar saviyasini o`sishida, shu jumladan, kitobxonlika berilib ketishiga yaxshi ta`sir ko`rsatadi. Binobarin, shoir she`rlari jamiyat qonuniyatları, tabiat sirlaridan hikoya qiluvchi satrlar bilan limmo-lim to`lgan. Bunday maroqli va benazir she`riyat mangulikka daxldordir.

UMUMIY XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz amalga oshirgan tadqiqot boshlang`ich sinf o`quvchilarining kelajakdagi tafakkur taraqqiyoti, jismonan yetuk, ma`naviy barkamol bo`lib voyaga yetishi uchun muhim vosita bo`lib xizmat qiladi. Bizning asosiy maqsadimiz yangi avlod o`qish kitoblaridagi istiqlol davri bolalar she`riyati namunalargini tahlil va tadqiq etishdir. Ularda mustaqillik, yurt qahramonlari, ulug` allomalar hamda ma`naviyatimiz o`zanlarini belgilovchi dolzarb mavzudagi ijtimoiy ahamiyatga molik she`rlar yosh avlod dunyoqarashida o`ziga xos burilish yasaydi. Ya`ni, ularning tafakkur olami boyishi, shiddat bilan taraqqiy etayotgan ona-Yurtimizga nisbatan yuksak faxr-iftixor uyg`onishiga zamin hozirlaydi. Qolaversa, bunday she`rlarning janriy xususiyatlariga e'tibor qaratish yanada muhim. Bu esa o`z navbatida boshlang`ich sinf o`quvchilarining

kelajakdagagi tafakkuri, jismonan yetuk, ma'naviy barkamol bo`lib voyaga yetishi uchun muhim vosita bo`lib xizmat qiladi. Bizning asosiy maqsadimiz o`qish kitoblaridagi istiqlol davri bolalar she'rlarining salmog`i haqida shunchaki ma'lumot berish emas, balki ulardan dars jarayonida foydalanish, qanday usullar bilan mashg`ulotlarni yanada qiziqarli olib boorish, she'riyatning nozik kechinmalari, obrazli tashbehlari, qofiya tuzilishi hamda g`oyaviy ahamiyatini oydinlashtirishdir.

Ushbu tadqiqot filologiya, pedagogika, metodikaga oidligi bilan e'tiborga sazovor. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, fan va ta'lim, nazariy bilimlarning integratsiyalashuvini ko`rish mumkin. Biz tadqiqot ishimizda ta'limda qiziqtirish, optimallashtirish, ketma-ketlik, ta'lim va tarbiya tafakkurini rivojlantirish kabi tamoyillarga asoslandik. Boshlang`ich sinf o`qish darslarida istiqlol davri she'rlarini o'tishga ajratilgan soatlarni aniqlab chiqdik va ularning katta-kichikligidan, mavzu-mundargijasidan qat'iy nazar 1 soatdan o'tishga rejalahtirilganiga guvoh bo`ldik.

Agar o`qish darslarida istiqlol davri bolalar she'rlarining mavzusiga, sinfiga, g`oyaviy dolzarbligi, badiiy xususiyatlariga qarab dars soati ajratilsa, maqsadga muvofiq bo`lardi. Shuningdek, ular haqidagi nazariy ma'lumotlar ham berib borilsa, masalan, "Qofiya nima?, Ritmchi? Turoqlanishni qanday tushunishimiz haqida ixcham nazariy ma'lumotlar boshlang`ich sinflardan berib borilsa, o`quvchilarining she'riyatga munosabati, uni tushunishi ancha samarali bo`ladi.

Shuningdek, 1-4-sinf o`quvchilari 40 dan ortiq istiqlol davri bolalar she'riyati namunalaridan bahramand bo`lar ekan, ularga ajratilgan dars soati ham shuncha miqdorni tashkil etadi. Bu umimiy foyiz hisobida oz miqdor ekanligi o`qituvchilar bilan o'tkazilgan so`rovnama natijasidan ma'lum bo`ldi. Kelajakda ularning umumiyligi miqdori badiiy va didaktik matnlarga tenglashtirilsa, o`quvchilarining ilmiy tafakkuri, dunyoqarashi, vatanparvarlik hissi yanada ortgan bo`lurdi.

**Foydalanimadigan asosiy darslik va o`quv qo`llanmalar, elektron ta`lim
resurslari hamda qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati**

Asosiy darsliklar va o`quv qo`llanmalar.

1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi. T., TDPU. 2008.
2. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent, "Noshir", 2009.-B.352.
3. G'afforova T. Boshlang`ich ta`limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, "Tafakkur", 2011, -B.160.

Qo`shimcha adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
2. Karimov I.A. O`zbekiston o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li. -T.: O`zbekiston, 1998. - 686 b.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - T.: Sharq nashriyoti- matbaa kontserni bosh tahririysi, 1999.-181 b.
4. Karimov I.A. Sog`lom avlod bizning kelajagimiz.T.: Abu Ali Ibn Sino, 2000. B-9.
5. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O`zbekiston, 1998. - 686 b.
6. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O`zbekiston, 1999. - 48 b.
7. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O`zbekiston, 2011.
8. O`zbekiston Respublikasi Kontsitusiyasi. - T.: O`zbekiston, 1992. -
 - a. 46 b.

9. O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida»gi qonuni. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: 1997. - B. 20-29.
10. O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». G`G` Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: 1997. - B.31-60.
11. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to`g`risida»gi Farmoni G` Ma'rifat. 2004 yil 22 may.
12. Abdullayev M., Abdullayeva M., Abdullayeva F., Abdurazzoqova G. va boshq. Mustaqillik: ilmiy-ommabop lug`at. T.:Sharq, 2006.
13. Abdullaeva Q., Safarova R., Bikboeva N. Boshlang`ich ta'lim kontseptsiyasi G`G` Boshlang`ich ta'lim, 6-son. -T.: 1998. - B.2-9.
14. Abdullaeva Q., Safarova R. va b. Boshlang`ich ta'lim davlat ta'lim standarti G`G` Boshlang`ich ta'limi, 6-son. -T.: - 1998. - B. 9-6.
15. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. Toshkent, “Ma’naviyat”, 1998, -304b.
16. G`afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O`qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent, “Sharq”, 2012, -176 b.
17. Barakayev R. O`zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., “Fan”, 2004, -160 b.
18. Bekmurodov A.Sh., Majidov I.U., G`afurov U.V., Mustafakulov Sh.I. Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan. Toshkent, “O`qituvchi”, 2011, - 200 b.
19. Matchonov S. va boshq. O`qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. T., 2013, - 240 b.
20. Ma'qulova B., Nasriddinova D. Kitobim-oftobim 1. Sinfdan tashqari o`qish kitobi. T., “O`qituvchi”, 2011, -152b.
21. Ma'qulova B., Nasriddinova D. Kitobim-oftobim 2. Sinfdan tashqari o`qish kitobi. T., “O`qituvchi”, 2011, - 152.

22. Matjonov S., G`ulomova H., Dolimov Z. 3-4-sinfda o`qish darslari. O`qituvchi kitobi. Toshkent, 2007. -b 192.
23. Matjonov S., G`ulomova H., Dolimov Z. O`qish kitobi. 4-sinf uchun. Toshkent, 2007, -b 272.
24. Matchonov S. Kitob o`qishni bilasizmi? –Toshkent, O`ituvchi, 1993.
25. Matchonov S. va boshq. O`qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. T., 2011.
26. Matjonov S., Shojalilov A., Vohidova N., Odamova O`. 4 - sinfda o`qish darslari. O`qituvchi kitobi. Toshkent, “O`qituvchi” nashriyoti, 2002,- b. 144.
27. Masharipova U., Boqiyeva H., Umarova Z., Aripova M. Ona tili va uni o`qitish metodikasi fanidan ta'lif texnologiyasi. Toshkent, 2013, -160 b.
28. Yo`ldoshev J.G` . Ta'lif yangilanish yo`lida. -T: O`qituvchi, 2000.- 207 b.
- 29.Yo`ldoshev J.G` . Ta'limimiz istiqqloli yo`lida.-T.:Sharq,1996.-224 b.
- 30.Roziqov O.R, Og`aev S.Yu., Mahmudova M.M.,Adizov B.R. Didaktika.- O`zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 1997.-256 b.
- 31.Safarova R.G` . O`quv dasturlarining integratsiyasi va metodik yo`nalishlari sohasida mavjud bo`lgan nuqtai nazarlar G` DTS asosidagi o`quv dasturlari: muammolar, izlanishlar, echimlar G`Seminar materiallari. XTVning ilmiy maqolalar to`plami. - T.: 2002. - B. 27-29.
- 32.Safarova R., Rixsieva M. Umumiy o`rta ta'lif maktablari darsliklarining yangi avlodiga qo`yiladigan talablar G` Metodik qo`llanma. T.: O`zPFITI, 2001.- 28 bet.
- 33.Safarova R., Shermamatova L. Pedagogikaning taraqqiyot yo`li: istiqboli va muammolari G`G` Xalq ta'limi, 2002. - №2.
34. Safarova R.G`., Musaev U., Musaev P. va boshqalar. O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta'lif startegiyasi muammolari va ta'lif mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo`llari. T.: Fan, 2005, - 255 b.

35. Umumiy o`rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o`quv dasturi. Boshlang`ich ta'lim G`G` Ta'lim taraqqiyoti. 34-maxsus son. - T.: «Sharq» NMK, 1999. - B. 480.
36. Shodiev D., Safarova R. Asosiy parametrlar G`G`Boshlang`ich ta'lim, 1995. - № 3-4. - B. 3-4.
37. To`xliyev B. Adabiyot o`qitish metodikasi. Toshkent, 2010, 168 b.
38. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. Ikki jildlik, 2-jild, T: O'qituvchi, 2006 , -406 b.
39. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. Ikki jildlik, 1-jild, T: O'qituvchi, 2006 , -280b b.
40. Qosimova K., Matchonov S., G`ulomova X., Yo`ldosheva X., Sariyev Sh. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent: “Noshir” nashriyoti, 2009, -b 352.
41. Qo`chqorov M. Ertaklarni o`rganish. // Boshlang`ich ta`lim. 1992, 2-son, 34-35-betlar
42. G`ulomov A., Qobilova B. Nutq o`stirish mashg`ulotlari. Toshkent. O`qituvchi, 1995. –B. 98
43. G`afforova T., G`ulomova X. 1-sinfda o`qish darslari. O`qituvchi kitobi. Toshkent, “Sharq”, 2003, -b 128.
44. G`afforova T., Shodmonov E., Eshturdieva G. O`qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq, 2005. -128.
45. G`afforova T. , G`ulomova X. O`qish darslari. 1-sinf o`qituvchilar uchun metodik qo`llanma. Toshkent, “Tafakkur”, 2011.
46. G`afforova T., Nurullayeva Sh. O`qish kitobi. 2-sinf o`qituvchilar uchun metodik qo`llanma. Toshkent, “Sharq”, 2012. -144 b.
47. G`afforova T. va boshq. O`qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq, 2012, -b 178.
48. G`afforova T. Boshlang`ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O`qituvchi kitobi. Toshkent, “Tafakkur”, 2011, -160 b..

49. Umarova M. 3 - sinfda o'qish darslari. O'qituvchi kitobi. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 2004, -bet 127.
50. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. T., "O'zbekiston", 2012, -224 b.
- 51.O`zbek tilining izohli lug`ati. II jild. T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.- 672 b.

www.ziyouz.com

[http:// www.nauka-shop.com](http://www.nauka-shop.com)

<http://WWW.Gov.uz>.

<http://www.nuu.uz>.

[www/pedagog/uz](http://pedagog.uz)

www.ziyo.net